

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA’LIM VAZIRLIGI
QARSHI MUXANDISLIK IQTISODIYOT INSTITUTI
IQTISODIYOT FAKULTETI**

« MENEJMENT» kafedrası

«HIMOYAGA TAVSIYA ETILADI»

«Menejment» kafedrası mudiri

_____ i.f.d. X.S. Muxitdinov

«___» _____ 2012 yil

« TASDIQLAYMAN»

«Iqtisodiyot» fakulteti

dekani _____ i.f.d. A.F.Xurramov

5340200-“Menejment” yo‘nalishi kunduzgi bo‘lim IV kurs, MJ–42 guruh talabasi **Eshonqulova Surayyo Baxodirovnaning** “Raqobat muhiti sharoitida sanoat ishlab chiqarishida investitsiyalarni boshqarish samaradorligi” (SHo‘rtanneftgaz unitar sho‘ba korxonasi misolida) mavzusida

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

BAJARDI: “Menejment» (tarmoq va sohalar bo‘yicha) ta’lim yo‘nalishi bitiruvchi IV -kurs talabasi **Eshonqulova S.**

ILMIY RAHBAR:
R. Omanov. “Menejment”
kafedrası dotsenti

Bitiruv malakaviy ishi kafedrada dastlabki ximoyadan o‘tdi
_____ sonli bayonnoma «_____» _____ 2012y.

QARSHI – 2012 yil

**Raqobat muhiti sharoitida sanoat ishlab chiqarishda investitsiyalarni boshqarish
samaradorligi (“Sho‘rtanneftgaz” unitar shu’ba korxonasi misolida)**

Mundarija

Kirish

I.Bob. Sanoat ishlab chiqarishda investitsiyalarni boshqarishning nazariy asoslari.

1.1. Investitsiyalarni boshqarish mazmuni va mohiyati.

1.2. Investitsiyalarni boshqarish tamoyillari.

1.3. Investitsiyalarni boshqarishning tashkiliy asoslari.

II.Bob. Sho‘rtanneftgaz unitar shu’ba korxonasida investitsiyalarni boshqarish samaradorligi tahlili.

2.1. Sho‘rtanneftgaz unitar shu’ba korxonasida investitsiyalarni boshqarish samaradorligi tavsifi.

2.2. Sho‘rtanneftgaz unitar shu’ba korxonasida investitsiyalarni boshqarish samaradorligi iqtisodiy ko‘rsatkichlari tahlili.

III.Bob. Sanoat ishlab chiqarishda investitsiyalarni boshqarish samaradorligini takomillashtirish yo‘llari.

3.1. Sanoat ishlab chiqarishda investitsiyalarni boshqarish samaradorligini takomillashtirishning iqtisodiy usullari.

3.2. Investitsion faoliyatini amalga oshirish mexanizmlarini takomillashtirish yo‘llari.

Xulosa va takliflar

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

KIRISH.

Mavzuning dolzarbligi. O'zbekiston iqtisodiyotini modernizatsiya qilishning hozirgi bosqichida investitsion faoliyatini amalga oshirish mexanizmlarini yanada takomillashtirish talab etilmoqda. Investitsiya bozorini shakllantirish investitsiya resurslarini to'plash, jamg'armalarni investitsiyalarga aylantirish, ulardan foydalanish samaradorligini oshirish muammolarini hal etishning zaruriy sharti hisoblanadi.

Prezidentimiz I.A.Karimov 2012 yilning 19 yanvarida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2011 yilning asosiy va 2012 yilda O'zbekistonni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan majlisida o'tgan yil natijalariga atroflicha to'xtalib, joriy yil vazifalarini aniq-ravshan belgilab berdi.

Tashqi iqtisodiy faoliyatni erkinlashtirish, mamlakatimiz iqtisodiyotiga bevosita xorijiy investitsiyalarning jalb qilinishini ta'minlaydigan huquqiy, ijtimoiy-iqtisodiy va boshqa shart-sharoitlarni takomillashtirish, xorijiy investitsiyalarni keng jalb etish, mablag'larni eng ustuvor yo'nalishlarda hamda raqobatdosh mahsulotlar ishlab chiqarish bilan bog'liq yo'nalishlarda mujassam qilish respublikada o'tkazilayotgan investitsiya siyosatining asosiy tamoyillaridir.

Mavzuning dolzarbligi mamlakatimiz iqtisodiyotini modernizatsiya qilishning hozirgi bosqichida investitsion faoliyatini amalga oshirish mexanizmlarini yanada takomillashtirish bo'yicha tadqiqotlar olib borish va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Bitiruv malakaviy ishining maqsadi. Iqtisodiyotini modernizatsiya qilish bosqichida investitsion faoliyatini amalga oshirish mexanizmlarini takomillashtirish usullari borasida ilmiy-amaliy tavsiyalar ishlab chiqish bitiruv malakaviy ishining maqsadini tashkil etadi.

Qo'yilgan maqsaddan kelib chiqib bitiruv malakaviy ishida quyidagi vazifalarni yechish ko'zda tutilmoqda:

- investitsiyalarni boshqarish usullari mohiyati va tamoyillarini tadqiq etish;
- investitsiyalarni boshqarishni tashkiliy asoslarini o'rganish va tavsiflash;
- investitsiyalarni boshqarish hozirgi holatini tahlil etish;
- korxonalarda investitsiyalarni boshqarish usullarini takomillashtirish bo'yicha ilmiy va amaliy tavsiyalar ishlab chiqish.

Bitiruv malakaviy ishining obekti sifatida respublikamizda faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar tanlangan, xususan mavzuni yoritishda "Sho'rtanneftgaz" unitar shu'ba korxonasining 2009-2011 xo'jalik yillaridagi faoliyati natijalaridan foydalanilgan".

Bitiruv malakaviy ishining predmeti sifatida korxonalarda investitsiyalarni boshqarishda yuzaga kelayotgan boshqaruv va iqtisodiy munosabatlar hisoblanadi.

Bitiruv malakaviy ishining nazariy va amaliy asoslari bo'lib respublikamiz Prezidenti asarlarida yetakchi olimlar va mutaxassislarining ushbu mavzuga oid ilmiy ishlarida ilgari surilgan g'oyalar, fikr va mulohazalar xizmat qiladi. Shuningdek, mazkur tadqiqotni amalga oshirishda O'zbekiston Respublikasining qonunlari, Prezident Farmonlari, Vazirlar Mahkamasining qarorlari va boshqa meyoriy hujjatlardan keng foydalanilgan.

Bitiruv malakaviy ishining ilmiy va amaliy ahamiyati shundan iboratki, tadqiqot natijasida ishlab chiqilgan ilmiy va amaliy takliflar neft va gazni qayta ishlovchi korxonlarda investitsiyalarni boshqarish samaradorligini oshirishga imkon beradi.

Bitiruv malakaviy ishining ilmiy yangiligi. Iqtisodiyotini modernizatsiya qilish bosqichida neft va gazni qayta ishlovchi korxonalarda investitsiyalarni boshqarish samaradorligini takomillashtirish yo'llari asoslanib berilgan va tavsiflangan.

Bitiruv malakaviy ishining tarkibiy tuzilishi quyidagicha: kirish, asosiy qismida 3 ta bob, xulosa va takliflar, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati keltirilgan.

Kirish qismida mavzuning dolzarbligi, bitiruv malakaviy ishining maqsadi va vazifalari, obeti, predmeti, nazariy va uslubiy asoslari, ilmiy va amaliy ahamiyati, ilmiy yangiliklari o'z aksini topgan.

Asosiy qismning birinchi bobida sanoat ishlab chiqarishda investitsiyalarni boshqarishning nazariy asoslari, investitsiyalarni boshqarish mazmuni va mohiyati; investitsiyalarni boshqarish tamoyillari; investitsiyalarni boshqarishning tashkiliy asoslari keltirilgan.

Ikkinchi bobida “Sho‘rtanneftgaz” unitar shu’ba korxonasida investitsiyalarni boshqarish samaradorligi tahlili; “Sho‘rtanneftgaz” unitar shu’ba korxonasida investitsiyalarni boshqarish samaradorligi tavsifi; “Sho‘rtanneftgaz” unitar shu’ba korxonasida investitsiyalarni boshqarish samaradorligi iqtisodiy ko‘rsatkichlari tahlili keltirilgan.

Uchinchi bobda sanoat ishlab chiqarishda investitsiyalarni boshqarish samaradorligini takomillashtirish yo‘llari; sanoat ishlab chiqarishda investitsiyalarni boshqarish samaradorligini takomillashtirishning iqtisodiy usullari va investitsion faoliyatini amalga oshirish mexanizmlarini takomillashtirish yo‘llari o‘z aksini topgan.

Xulosa qismida bitiruv malakaviy ishi bo‘yicha olib borilgan tadqiqotlar natijasidan olingan xulosalar va takliflar berilgan.

I.Bob. Sanoat ishlab chiqarishda investitsiyalarni boshqarishning nazariy asoslari.

1.1. Investitsiyalarni boshqarish mazmuni va mohiyati.


Ishlab chiqarish tarmog'ini moliyalovchi asosiy omillardan biri bu ichki va tashqi investitsiyalardir. Har qanday korxona faoliyatining asosini investitsiya operatsiyalari tashkil etadi. Investitsiya deganda loyihalarni, ishlab chiqarishni amalga oshirish uchun sarf etiladigan mablag'lar tushuniladi.

Sharqiy Yevropa mamlakatlari, o'z mustaqilligini qo'lga kiritgan MDX respublikalari o'zining rivojlanish yo'li qilib bozor iqtisodiyotini, ya'ni bozor munosabatlarini tanlab oldilar. Bu esa bozor infrastrukturasini tashkil etishni taqozo etadi.

Mulkchilikning turli xil shakllarining vujudga kelishi munosabati bilan kapitalning sohalaridagi o'zgaruvchanligi, uning oqimi, hududlararo taqsimlanishi (eksport, importi) tezlashadi. Bu jarayonda "investitsiyalar" tushunchasini to'g'ri tahlil etish muhim ahamiyat kasb etadi. Investitsiyaning asosiy turlarining vazifasi ham shularga mos keladi:

I. Moliyaviy investitsiyalar: - aktsiya, obligatsiya va boshqa qimmatbaho qog'ozlarni sotib olish yoki sotishdan;

II. Real investitsiyalar: - mamlakat ichkarisida va chet ellarda ishlab chiqarishga kapital qoyishdan yoki suveren davlatlarga qarz va subsidiya berishdan iborat.



1.1.1. Rasm. Investitsiyalarning asosiy turlari

Ma'lumki "investitsiyalar" tushunchasi iqtisodiyotda yangi ibora emas. Moliyaviy munosabatlar nuqtai nazaridan investitsiyalar hozirda iste'moldan voz kechishni kapital harakati jarayoni orqali bo'lajak qiymatga almashtirishdan o'zga narsa emas. Shunday qilib «investitsiyalar» tushunchasi «kapital quyilmalar», «investitsiyalarning mulkiy shakli», «kapital», «kredit» va boshqa tushunchalarga qaraganda kengroq, «sig'imliroq» tushuncha hisoblanadi. Investitsiyalarni ta'riflashda ularning amalga oshirilishidagi barcha shakllariga xos bo'lgan umumiylik o'z ifodasini topgan bo'lishi lozim. Demak, investitsiyalar aniq va noaniq, lekin ehtimoli bor risklar ostida kapitalni muayyan jarayonlarga, muayyan vaqtga bog'lash bo'lib, uning hozirgi qiymatini saqlash, kapitallashtirish va jamg'arish maqsadiga qaratiladi. Investitsiyalardan ko'zlangan maqsadlar bilan ularga erishish usullari o'rtasida jips aloqalar mavjud. Bu aloqalar investitsiya maqsadlarini keltirish, ularning xavfsizligi, daromadlilik, kapitalning o'suvi va likvidiligidini uyg'unlashtirish asosida amalga oshiriladi. Ular kapital harakatining muayyan jarayonlariga jalb qilinadi, muayyan vaqt davomida real va moliyaviy aktivlarda band etiladi. Investitsiyalarning maqsadi safarbar etilayotgan kapitalning hozirgi qiymatini saqlash va uni kapitallashtirishdan iborat. Ular risklarning turli ko'rinishlari bilan bog'liq, jamg'arish yo'lida amalga oshiriladi. Investitsiyalar risklari ko'lami doirasi bank va kredit risklaridan ancha keng. Investitsiyalarning aniq va aniq bo'lmagan risklari majmui aksariat hollarda ularni moliyalashtirish manbalarining qo'lga kiritilishi mumkinligi, ishonchliligi va tegishli tuzilmasi bilan belgilanadi.

Kapitalga bo'lgan talab va taklif bank foiz siyosati bilan tartibga solinadi. Bank foiz stavkasidan farq qilgan holda investitsiyalardan kutiladigan natija qanchalik yuqori bo'lsa investitsiyalarga talab shu qadar ko'proq bo'ladi. Bu esa o'z navbatida investitsiyalarni moliyalashtirishning manbai tarzida bank kreditiga talabni yanada oshiradi. Bank kreditiga talabning ko'tarilishi foiz stavkalarining yanada ko'tarilishiga olib keladi.

Kredit munosabatlari shuning uchun ham amalga oshiriladiki, ular kreditorlarga ham, qarz oluvchiga ham naf keltirish imkoniyatiga ega. Kredit munosabatlarining narxi kredit uchun to'lanadigan foiz stavkalaridir.

Agar bu kredit munosabatlarining sub'ektlari milliy iqtisodiyot rezidentlari bo'ladigan hollarda va ular o'z iste'molining vaqt jihatlarini o'zgartirish to'g'risida qaror qabul qiladigan bo'lsalar, shu iqtisodiyotning foiz stavkalari kredit munosabatlarining narxini tashkil qiladi.

Iqtisodiyot sub'ekti kapitalni investitsiya qilib, o'zining tovar va xizmatlardan foydalanish vaqt jihatlarini o'zgartiradi va shu bilan iste'molni hozirdan kelajakka ko'chirishni afzal ko'radi. Bunday ko'chirish narxi bank krediti foiz stavkasidan yuqori bo'lishi lozim bo'lgan kelajakda kutiladigan daromad hisoblanadi. Bu aytilgan fikrlar bir iqtisodiyot sub'ektlarining kredit va investitsiya munosabatlari uchun to'g'ridir.

"Investitsiyalar" aslida nemischa Investition, lotincha Investio so'zdan olingan bo'lib, "solish", "kapital solish" degan ma'nolarni bildiradi va 80-yillarda investitsiyalar iqtisodchilar tomonidan o'ziga xos tahlil etildi, hamda ishlab chiqarishga uzoq muddatli quyilmalar sarfini, ya'ni xarajatlar yig'indisini anglatadi deb ta'riflangan.

Investitsiyalar kapital va uzoq muddatli quyilmalar tariqasida xalq xo'jaligi tarmoqlariga sarf etiladigan xarajatlar yig'indisini aks ettiradi deb tushuncha berilgan. Demak, investitsiyalar barcha turdagi mulkiy va intellektual boyliklarni uzoq muddatli quyilmalar tariqasida xalq xo'jaligi tarmoqlariga sarf etiladigan xarajatlar yig'indisini aks ettiradi.

Investitsiyalarni sarflashdan maqsad, ishlab chiqarishni bozor iqtisodiyoti tamoyillari asosida olib borish, tadbirkorlik daromadini yoki foizlarini ko'paytirib olish hisoblanadi. Shuning uchun ham bozor iqtisodiyoti sharoitida ishlab chiqarishni tashkil etishda investitsiyalar sarfi yuqori daromad keltiradigan sohalarga ko'proq yo'naltirilgan. Ishlab chiqarishni rivojlanishi, tovarlarni taklifi, raqobat va talabga nisbatan taklifning o'sib ketishi yoki kamayib ketishi investitsiyalarni yo'nalishini, ya'ni u yoki bu sohalar va tarmoqlarda unumli sarflanishini va natijada yuqori darajada daromad keltirishni aniqlab beruvchi omillar sifatida xizmat qilgan.

Ishlab chiqarishni taraqqiy etishi va jahon bozori vujudga kelishi munosabati bilan investitsiyalarni, ya'ni yuqori daromad keltiruvchi kapital hududlararo va davlatlararo oqimi kuchaymoqda va tashqi investitsiyalar vujudga kelgan.

Bozor iqtisodiyotini, bizning sharoitimizda qisqa davr ichida yo'lga qoyishda, ishlab chiqarishni tezlashtirishda asosiy omillar sifatida tashabbus ko'rsatish va sarmoyalarni samarali sarflash muhim ahamiyatga egadir. Chunki O'zbekiston tabiiy resurslarga boy va mehnat resurslari yetarli darajada.

Tankis iqtisodiyotda iqtisodiy tanlov va uning yechimi boyicha qaror qabul qilish markaziy muammo bo'lib hisoblanadi.

Shunday ekan, iqtisodiyotdagi tanqislikni bartaraf etishda investitsiyalar asosiy o'rinni egallaydi.

1.2. Investitsiyalarni boshqarish tamoyillari.

Mamlakatimizda bozor iqtisodiyoti munosabatlariga o'tish jarayonida o'z yechimini kutayotgan yangi-yangi dolzarb masalalar mavjud. Masalan, xususiylashtirish va mulkni davlat tasarrufidan chiqarish jarayonida muloqotlar faoliyatini rivojlantirishda va ishlab chiqarishda ijobiy ta'sir ko'rsatishda, davlatning moliyaviy tizimini shakllantirishda investitsion mablag'larni samarali jalb qilish qimmatli qog'ozlar bozorida muhim ahamiyatga ega. Investitsiya kompaniyalari va investitsiya fikrlari umumlashib, investitsiya institutlari sifatida faoliyat ko'rsatishi va moliyaviy munosabatlarning shakllanishiga katta ijobiy ta'sir ko'rsatishi mumkin.

Bozor iqtisodiyotini rivojlantirish xo'jalik yurituvchi shaxslardan bir tarafdin raqobatbardoshlikni oshirishni talab qilsa, boshqa bir tarafdin tez-tez o'zgaruvchan iqtisodiyot sharoitlariga moslashish, barqarorlik va mustaxkamlikni ta'minlashni talab qiladi. Jamiyatni

rivojlantirish umumiy va Alohida xo'jalik yurituvchi shaxslarning milliy mulk va albatta daromad o'sishini ta'minlovchi moddiy boyliklarni keng ko'lamda qayta ishlab chiqarishga asoslanadi. Ushbu o'sishni ta'minlashda asosiy vositalardan biri, investitsiyani sotish bo'yicha amaliy harakatlar yig'indilarini o'z ichiga oladigan investitsiyaviy faoliyatlarni yo'lga qoyish muhim omil sanaladi.

1. Davlat tomonidan investitsiya faoliyatini muvofiqlashtirish uning muhim yo'nalishlarida qulay sharoitlar yaratishga qaratilgan. Avvalom bor ijtimoiy rivojlantirish, ishlab chiqarishni texnik jihatdan takomillashtirish, yangilik va ixtirolarni tadbiq etish asosida ijtimoiy talablarni qondirishga qaratilgan. Bu borada muvofiqlashtirishni tashkil etish investitsiya faoliyatini sharoitlarini aniqlash yo'li bilan hamda davlat investitsiyalarini boshqarish bilan birga olib boriladi.

2. Davlat tomonidan investitsiya faoliyati sharoitlarini muvofiqlashtirish bir qator tadbir va choralarni qo'llash va hayotga tadbiq etish negizida amalga oshirilmoqda. Davlat tomonidan investitsiya faoliyatini muvofiqlashtirish asoslari qabul qilingan bo'lib, asoslarda ko'rsatilgan tadbir va choralalar

3. quyidagilardan iborat:

Soliqlar tizimini ko'paylashtirish. Soliq sub'ektlari, ob'ektlarini hamda uning stavkalarini differentsiyallash va yengilliklar berish (investitsiyalar bo'yicha differentsiyallashgan soliq kiritiladi);

2. Amortizatsiya siyosatini tubdan o'zgartirish, shu jumladan asosiy fondlarni amortizatsiyasini tezlashtirish (iqtisodiyotni sohalari, ba'zi tarmoqlari, asosiy fondlarni elementlari, asbob-uskunalarini turlari bo'yicha differentsiallashtirilgan holda amortizatsiya yengilliklari o'rnatiladi);

3. Ayrim regionlarni, tarmoqlarni, ishlab chiqarishlarni rivojlantirish uchun byudjet ssudalari orqali moliyaviy yordam ko'rsatish;

4. Kredit siyosatini, davlat me'yor va andozalarini, antimonopol tadbirlarini amalga oshirish. Davlat mulkini, shu jumladan tugatilmagan qurilishlarni xususiyatlash (davlat tasarrufidan chiqarish) hamda baholarni tashkil etish siyosati;

5. Yer hamda boshqa tabiiy boyliklardan foydalanish shart-sharoitlarini aniqlash;

6. Investitsiya loyihalarini ekspertizadan o'tkazish. Bugungi kunda yuqorida qayd etilgan tadbir va choralarni hayotga tadbiq etish maqsadida respublikada bu borada bir necha qonunlar qabul qilindi.

Investitsiyalarni qayd etilgan turlari va shakllari asosida tadbirkorlik, ishbilarmonlik va boshqa davlat tomonidan taqiqlanmagan faoliyatlarni barcha investorlar tomonidan amaliy ravishda yo'lga qoyish, mablag'lar sarf etish va ularni hayotga tadbiq etish chora va tadbirlarining yig'indisi investitsiya faoliyatini anglatadi. Bozor iqtisodiyotida investitsiya faoliyatini jismoniy va yuridik shaxslar (korxonalar, firmalar, aktsioner jamiyatlar va boshqa tipdagi mulk egalari) hamda davlat yuritadi. Investitsiya faoliyatini yo'lga qoyish har bir mulk egasi, birinchi navbatda o'z manfaatini ko'zlab bu jarayonda yagona bir maqsadga, ya'ni foyda (daromadga), samaraga erishishni rejalashtiradi. Albatta, investitsiya faoliyatini yuritishda har bir mulk egasi ishbilarmonlikni tadbirkorlikni mohiyatini chuqur anglagan holda ish yuritishi lozim. Investitsiya faoliyati bilan shugullanuvchi mulk egasi tez o'zgaruvchan bozor iqtisodiyotini, uning serqirrali munosabatlarini har tomonlama anglay bilish lozim. Faoliyatni yuritishda iqtisodiy axborotga nafaqat tanlangan soxada emas, balki butun iqtisodiyotda mamlakat miqyosida marketing bilimlari asosiga ega bo'lishi Alohida ahamiyatga ega. Chunki raqobat kurashiga asoslangan iqtisodiyotda, pul muomalasi, moliya, kredit va banklar, soliq siyosatini chuqur bilmay turib, investitsiya faoliyatini tashkil etish tavakkalchilik bilan bog'liq, qisqa davr ichida inkirozga uchrashi mumkin. Ma'lumki, O'zbekiston Respublikasida bozor munosabatlarini rivojlantirishning ko'zda tutgan unlab qonunlar qabul qilindi. Bular jumlasiga investitsiya faoliyatini tashkil etishni hamda yo'lga qoyishni belgilovchi bir qator qonunlar kiradi. Shulardan eng muhimlari Davlat mulkini xususiyashtirish, chet el investitsiyalarini jalb qilish, tashqi iqtisodiy aloqalarni yo'lga qoyishga bag'ishlangan va boshqa qonunlardir. qabul qilingan qonunlarni hayotga tatbik etish asosida bugungi kunda investitsiya faoliyatini yuritish hamda bozor munosabatlarini rivojlantirish uchun qulay shart-sharoitlar yaratilmoqda. Mulkchilikni

turli shakllarining rivojlanishi, tadbirkorlik va ishbilarmonlikni yo'lga qoyilishi, tashqi iqtisodiy aloqalarni kuchaytirilishi, qo'shma korxonalarning iqtisodiyotini barqarorlashtirishdagi rolini oshirilishi investitsiya faoliyatini to'la tashkil etish uchun zarur bo'lgan imkoniyatlarni yaratmokda. Bozor iqtisodiyoti sharoitida investitsiya faoliyati kengaytirilgan ravishda tashkil etilgan. Bozor sharoitida investitsiya faoliyatini kengaytirish va rivojlantirish jismoniy, yuridik shaxslarni va davlatni, foyda (daromad), samara olish maqsadida tadbirkorlik, ishbilarmonlik va boshqa faoliyatlarini qaytadan tiklashga qaratilgan. Bu borada asosiy maqsad esa, investitsiya faoliyatini tashkil etib iqtisodiyotimizni barqarorlashtirish, dunyo bozoriga kirib borish, dunyo-xo'jalik aloqalarini mustahkamlash va aholini turmush darajasini ko'tarishdir.

Investitsiyaviy siyosatni hayotga joriy etish, ustivor tarmoqlarni tanlab olish o'ta nozik ishdir. Chunki bozor mexanizmlari har doim ham mamlakat iqtisodiyoti manfaatlariga xizmat qilishga mos kelavermaydi. Shuning uchun, xorijiy investitsiyalarni jalb etish borasida ham ilmiy moslangan, yo'llangan, faol davlat siyosati bo'lishi zarurdir.

quyidagilar o'tish davrida investitsiya siyosatining muhim ustivor yo'nalishlari hisoblanadi:

oziq-ovqat muammosini hal etish;

mamlakatning eksport saloxiyatini mustahkamlash va import bosuvchi ishlab chiqarishni tashkil qilish:

iqtisodiyotning tayanch tarmoqlarini qo'llab-quvvatlash va yuqori texnologiyali ishlab chiqarishni rivojlantirish;

mamlakatning kam rivojlangan mintaqalari iqtisodiyotini ko'tarish.

Xorijda doimiy yashovchi O'zbekiston Respublikasi fuqarolari;

Yuqoridagilarga qo'shimcha tarzda aytish lozimki, Respublikamizni zarur, xayotiy muhit tovarlar bilan ta'minlash eng avvalo, ularni o'zimizda ishlab chiqarishni tashkil etish hisobiga ta'minlash milliy xavfsizlik; sobit qadamlik va barqarorlikka erishishning asosiy omillaridan biridir.

Investitsiyalarni amalga oshirish uchun ular fuqarolarni va yuridik shaxslarni o'z xohishlari bilan, shartnomalar asosida jalb qiladilar. qonunlarga tayangan holda shartnomalar asosida investitsiyalarga ega bo'lish, ulardan foydalanish va bu faoliyat natijalari boyicha qarorlar qabul qilishni investorlar, boshqa fuqaro va yuridik shaxslar zimmasiga topshirish to'g'risida qarorlar qabul qilishlari ham mumkin. Bunday hollarda majburiyat garovi sifatida (investorning majburiyatini ta'minlash) investorning mulki qabul qilinadi. Garovga faqat investitsiya oluvchi-ning shaxsiy mulki yoki to'la xo'jalik olib borish xuquqiga ega bo'lgan mulki olinadi. Investorlar investitsiya natijalariga, investitsiya ob'ektlarga ega bo'lish, foydalanish, farmoyish chiqarish hamda reinvestorlash (investitsiyaga aylantirish) xuquqlariga egadir.

Investitsiya faoliyatidagi jarayonda sub'ektlar o'rtasida bo'ladigan munosabatlar shartnomalar (kelishuvnomalar) asosida muvofiqlashtiriladi. Shartnomalar tuzish, sheriklarni tanlash, majburiyatlarni aniqlash va boshqa xo'jalik munosabatlarini o'rnatish, agarda ular qabul qilingan qonunlarga zid bo'lmasa, faqat investitsiya faoliyati sub'ektlarini zimmasida bo'ladi. Har ikkala tomonlarni kelishuviga binoan, shartnomalar investitsiya faoliyatining umumiy muddatiga to'ziladi.

qabul qilingan qonunlar hamda qonunchilikka asoslangan ravishda investorning qator majburiyatlari ham bor. Bu majburiyatlar davlat idora va muassasalari oldida bajarilishi lozim bo'lib, quyidagilardan iboratdir:

- investorlar, investitsiyalar hajmi, ularning manbalari to'g'risida moliya va soliq organlariga deklaratsiyalar topshirishi lozim;

- kapital qurilishni amalga oshirish uchun, tegishli raxbar va maxsus xizmat organlariga ruxsat etilish va roziligini olish kerak;

- investitsiya loyihasining sanitar-gigienik va ekologik jihatdan qoyilgan talablarga javob berishi to'g'risida ekspertiza xulosasiga ega bo'lishi shart.

Yuqorida qayd qilinganlardan tashqari, investitsiya sub'ektlarini majburiyatlariga quyidagilar ham kiradi:

- qonunchilikda belgilangan va urnatilgan tartib boyicha me'yor va andozalarga boyso'nish;

- vijdonan raqobatlashish hamda antimonopol muvofiqlashtirish talablarini bajarish;
- davlat siyosati, soliq va moliya organlar tomonidan yuklatilgan talablarni bajarish va ularga boyso'nish;
- belgilangan tartibda buxgalterlik va statistik ma'lumotlarni hamda xisobotlarni tegishli organlariga o'z vaqtida yetqazib berish.

Bulardan tashqari investitsiya faoliyatini har bir ishtirokchisi maxsus ishlarni bajarish uchun litsenziyaga ega bo'lishi lozim. Litsenziya olish uchun bajarish lozim bo'lgan ishlarni ruyxati hamda ularni amalga oshirish tartibi mumkin qadar qonunchilikda belgilanadi.

Bozor munosabatlarini rivojlanishi mulkchilikni har xil shaklidagi moliyalashtirish manbalarini yaratilishiga olib keladi.

Mamlakatimiz iqtisodiyotida foydalanilmayotgan ichki investitsiyalar hamda jalb qilinayotgan tashqi investitsiyalar miqdorini o'sib borayotganligi, uning turli tarmoqlar va hududlar tarkibiga kiruvchi korxonalar ishlab chiqarishga sarflanayotganligi va bu borada olib borilayotgan ishlarni keng ko'lamligi va samaradorligini investitsion siyosatning natijalari ko'rsatmoqda.

Mamlakatimizda mustaqillik yillarida investitsion faoliyatini amalga oshirishning qonuniy me'yoriy ba'zasining yaratilishiga O'zbekiston Respublikasining «Investitsiya faoliyati to'g'risida»gi qonunining qabul qilinishi bu boradagi ulkan qadam bo'ldi. Bu o'z navbatida eng dolzarb masala, investitsiyalarni moliyalashtirish masalasini yechish imkoniyatini bermoqda.

Bugungi kunda investitsiya siyosatining o'ziga xos xususiyati investitsion faoliyatni moliyalashda ko'rinadi. Bunda asosan kredit resurslaridan keng foydalanish chunki investitsiyalarning moliyaviy manbalari belgilangan. Ular markazlashgan byudjet mablag'lari, axoli jamg'armalari, xo'jalik sub'ektlari: mablag'lari, bank kreditlari va xorijiy mablag'lardir. Lekin shuni ta'kidlash joizki, hozirgi kunda O'zbekiston iqtisodiyotida investitsion manbalar tarkibini takomillashtirishda muhim tendentsiyalarga Alohida ahamiyat berish lozim.

Birinchidan, mamlakat iqtisodiyotini investitsiyalashning yangi manbalarini joriy etish; tijorat banklari tomonidan uzoq muddatli kreditlar berilishi, aktsiya va boshqa qimmatbaho qog'ozlarni emissiyalashdan olinadigan mablag'lar, davlat mulkini davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirishdan tushgan daromadlar, sug'urta kompaniyalari hisobiga katta pul mablag'larini jalb etish va boshqalar.

Ikkinchidan, investitsiyalarning an'anaviy manbalarini sog'lomlashtirish korxonalarning o'z mablag'laridan samarali foydalanishga qaratish byudjet ajratmalari, maqsadli kreditlar, tanlov asosida byudjet mablag'lari taqsimlanishi, imtiyozli kreditlash va boshqarish.

Umuman olganda o'sish sub'ektlarga ko'ra chet el investitsiyalari oldingi o'rinni egallaydi, undan keyingi o'rinda byudjetdan moliyalash, so'ngra axoli mablag'lari bo'lmoqda. Korxona mablag'larini hajmi yuqori bo'lishi bilan birga ularning ulushi sur'atlari investitsiyani moliyalash manbalarining umumiy tarkibida past mavqega ega bo'lmoqda.

Moliyalashtirish manbalari tarkibida hozirgi bank mablag'lari hajmi unchalik katta bo'lmasa ham, u o'ziga Alohida e'tiborni talab qiladi.

Shuni ta'kidlash lozimki, investitsion faoliyatni moliyalashtirishning asosiy va eng muhim manbalaridan biri kredit resursidir. – Kreditlar investitsion faoliyatida tadbirkorlarni real daromad olishini ko'paytirishga undaydi, pirovardida birinchidan jamiyat a'zolaridan boqimandalik kafiyatni yo'qotadi: Ikkinchidan, korxonalar texnika taraqqiyoti bilan bog'liq yangi yo'nalishlarni ochib beradi; uchinchidan, ushbu soxada yangiliklar, kashfiyotlar qilishga undaydi.

Yana shuni ta'kidlash lozimki, investitsion faoliyatni amalga oshirishning barcha bosqichlarida mablag'ga bo'lgan talabni ta'minlashni amalga oshiruvchi vosita banklardir.

Davlat byudjeti mablag'lari haqida shuni ta'kidlash joizki, uning ma'lum qismi ijtimoiy ma'muriy fondlarni yaratishga sarflanadi.

Shu bois hozirda investitsion resurslar bozorida takliflarni nafaqat barqarorlashtirish, balki ancha miqdorda oshirish uchun uning manbalari tarkibida davlat ulushini kamaytirgan holda chet el kreditlari va mahalliy banklar kreditlarini oshirishga harakat qilinmog'i kerak.

Mamlakatning iqtisodiy-ijtimoiy rivojlanishida investitsiyalarning, shu jumladan xorijiy investitsiyalarning ahamiyati kattadir. Ma'lumki har qanday davlat dunyodan ajralgan holda

jahon tajribalarini o'rganmasdan, dunyoning yetakchi davlatlari ilm, fan va texnika sohalarida erishgan yutuqlarini qabul qilmasdan yakka tartibda rivojlanishi mumkin emas.

1.3. Investitsiyalarni boshqarishning tashkiliy asoslari.

Samara keltiradigan mulkiy va intellektual boyliklar, ya'ni investitsiyalar quyidagi shakllarda bo'lishi mumkin:

- pul mablag'lari, banklardagi maqsadli jamg'armalar, paylar, aktsiyalar va boshqa qimmatbaho qog'ozlar;
- harakatdagi va harakatda bo'lmagan mulklar (binolar, inshootlar, asbob-uskunalar, hamda boshqa moddiy boyliklar);
- avtorlik xuquqi, ixtirolardan foydalanish xuquqlaridan ("nsuxau") tashkil topgan mulkdorlik xuquqlari va boshqa intellektual boyliklar;
- yer va boshqa tabiiy resurslardan foydalanish xuquqlari, hamda mulkchilik xuquqlari;
- boshqa boyliklar.

Hozirgi kunda tadbirkorlik hamda boshqa turli faoliyatlarga sarflanadigan boyliklarni (investitsiyalarni) tarkibiga va to'zishlariga aniqlik kiritildi va ularni ma'nosi ancha kengaytirildi. Investitsiyalarni shakllari va mazmuni I -sxemada ko'rsatilgan.

Investitsiyalarning nima va qaysi sohalariga sarflanishiga asoslanib, ularni moliyaviy va real investitsiyalarga ajratish mumkin.

Moliyaviy investitsiyalar shaxsiy kompaniyalar va davlat idoralari tomonidan muomalaga chiqarilgan aktsiyalarga, obligatsiyalarga boshqa qimmat baho qog'ozlarga va bank depozitlariga, uzoq muddatga jalb qilingan quyilmalardir. moliyaviy investitsiyalar qimmatli qog'ozlar bozorida sarflanishini va shu bozorda qatnashishini anglatadi. Moliyaviy investitsiyalarning asosiy qismi, kapitalni noishlab chiqarish sohasiga sarflanishini bildiradi. Moliyaviy investitsiya ko'pincha real investitsiyalarning manbai bo'lib xizmat qilishi mumkin. Moliyaviy investitsiyalar erkin bozor infrastrukturasi rivojlangan mamlakatlarda, qimmat baho qog'ozlar bozori kapitalni sohalar bo'yicha taqsimlanishida muhim ahamiyatga ega bo'lgan davlatlarda ko'proq tarqalgan.

Yuqoridagi fikrlarga ko'ra investitsiyalar – bu moliyaviy resurslarni turli faoliyat, asosan ishlab chiqarishni rivojlantirish uchun uzoq muddatli kapital kiritish shaklida bevosita korxonani qo'shimcha foyda olish yoki korxona, kompaniya ishiga ta'sir ko'rsatish niyatida qimmatbaho qog'ozlarni sotib olishda ishlatiladi. Investitsiyalarni moliyaviy (qimmatbaho qog'ozlar bilan operatsiya), haqiqiy (mablag'larni uzoq muddatga moddiy ishlab chiqarishga kiritish), aqliy (intellektual), (nou-xau, ilmiy ishlar) turlarga bo'lishi mumkin. Bundan tashqari investitsiyalar tavakkallik (venchurli), to'g'ri, portfelli annuitet turlariga ham bo'linadi va shu jihatdan farqlanadi.

Venchurli kapital - bu tavakkalchilik kapital kiritishni belgilash uchun ishlatiladi, u o'zini yangi aktsiyalar chiqaruvchi investitsiya shaklida ko'rsatadi. Bular yangi aktsiyalar chiqaruvchi investitsiya shaklida o'zini ko'rsatadi. Bu yerda diverifikatsiya keng me'yorda ishlatiladi.

To'g'ri investitsiyalar – bu xo'jalik yurituvchi sub'ektning nizom kapitaliga kiritilgan mablag'dir yoki yangidan bunyod etilayotgan korxona uchun foyda ko'rish niyatida va ushbu ishbilarmonlik tizimi boshqaruvini boshqarishda qatnashish xuquqini qo'lga kiritish uchun ishlatiladi.

Portfel investitsiyasi – bu foyda olish maqsadida sanoat, qishloq xo'jalik, Transport, kredit va boshqa korxonalarga uzoq muddatli kapital mablag'ini kiritishdir.

Annuitet – omonatchiga vaqt-vaqti bilan to'lanadigan pul mablag'idir (badal, Renta yoki foyda). Uning quyidagi turlari mavjud: annuitet investitsion reja bilan – sug'urta rentasini kapital mablag' bilan qimmatbaho qog'oz sotib olishga sarflanganda xosil bo'ladi. Bu yerda sug'urta qilingan shaxs har yilgi belgilangan foydani hamda qimmatbaho qog'ozdan kelgan foydani oladi.

Har yilgi annutetlar – sug'urtalanganlarga yillik badallarni to'lash.

Bo'linuvchi annutet – sug'urtalangan shaxsni vaqtdan keyin merosxurlar orasida taqsimlanuvchi daromad.

Kechiktirilmaydigan annutet (tenta) – sug'urta shartnomasi to'zilganda keyingi to'lanishi boshlangan yillik daromad.

Kechiktirilgan annutet – (rentasi) – sug'urta shartnomasi to'zilgandan so'ng ma'lum muxlat o'tgandan keyin to'lanadigan yillik daromad.

Guruhli annutet – daromad yagona sug'urta shartnomasi asosida bir necha fizik va yuridik shaxslarga to'lanadigan daromad bo'lib so'ng ular orasida taqsimlanadi.

Kichik biznesda investitsiyani yuridik yoki jismoniy shaxslar, tavakkalchilik darajasiga nisbatan investorlarga, yangi biznes tashkilotchilariga, olibsotarlarga va oyinchilarga bo'linib amalga oshiriladi.

1.3.1. chizma

Bozor iqtisodiyoti sharoitida investitsiyalarni shakllari va tarkibi.

Tadbirkorlik, ishbilarmonlik va boshqa, davlat tamonidan taqiqlanmagan, faoliyatlarga sarflanadigan barcha turdagi mulkiy va intellektual boyliklar / investitsiyalar /				
Pul mablag'lari, banklardagi maqsadli jamg'armalar, paylar, aktsiyalar va boshqa qimmatbaholi qog'ozlar	Harakatdagi va harakatda bo'lmagan mulklar binolar, inshootlar, hamda boshqa moddiy boyliklar	Avtorlik xuquqi, ixtirolardan foydalanish xuquqlaridan ("nouveau") tashkil topgan mulkdorlik xuquqlari va boshqa intellektual boylikdir	Yer va boshqa tabiiy resurslardan foydalanish xuquqlari, hamda mulkchilik xuquqlari	Boshqa daromad yoki ijtimoiy samara beruvchi boyliklar

Investitsiya faoliyatini tashkil etishda uning ob'ekt va sub'ektlari ishtirok etadi.

Investitsiya sub'ektlari - investitsiya faoliyatida ishtirok etuvchi mulkiy va intellektual boyliklarga ega bo'lgan jismoniy, yuridik shaxslar va davlatdir (mulkdorlar). Investitsiya faoliyatini yuritishda uning sub'ektlari bo'lib bir tomondan mulkiy va intellektual boyliklarga ega bo'lgan mulkdorlar (investorlar) ikkinchidan - investitsiyalarni qabul qiluvchi jismoniy, yuridik shaxslar va davlat hisoblanadi.

Investitsiya sub'ektlari orasidagi munosabatlar ishlab chiqarish harakteriga egadir.

Investor – bu qaror qabul qiluvchi va o'zining shaxsiy, qarzga olingan mablag'larini va boshqa jalb qilingan mulkiy va madaniy boyliklarini investitsion loyihaga kirituvchi jismoniy va yuridik shaxslardir. U omonatchi va qarz beruvchi rolda chiqishi mumkin bo'lib amalga oshiruvchi investitsiyalarning yo'nalishini, samarasini erkin holda aniqlaydi. Investor qarori bilan investitsiyalarga egalik qilish, ishlatish, foydalanish xuquqi va ularning natijalari bilan jismoniy va yuridik shaxslarga qonunda qurilgan tartibda berishi mumkin.

Uyinchi-tajovo'zli investor. U o'zining investitsion faoliyatini u katta tavakkalchilikka yuz to'tadi va asosan aktsiyalarni, kamroq obligatsiyalarni sotib oladi.

Investorlar asosiy maqsadi investitsiya faoliyatidan yuqori darajada daromad, samara olish va o'z faoliyatini, bozor infrastrukturasini rivojlanishiga moslagan holda kengaytirish va investitsiya sohalarini hamda ob'ektlarini o'zgartirib borishidir. Bu borada ular baholarni o'zgarishiga qarab talab va taklif qonuni asosida ish olib boradilar.

Investitsiyalarni qabul qiluvchi sub'ektlarning esa asosiy maqsadi investorlar bilan bo'ladigan munosabatlardan samarali ravishda foydalanish, o'zlari tanlagan sohalarida, qoyilgan maqsadlarga qisqa vaqt ichida erishish va o'z navbatida ishlab chiqarishni rivojlantirishdir.

Investitsiya faoliyati investor tomonidan tanlangan sohalar hamda investitsiyalar sarflanishi lozim bo'lgan maqsadlar bilan, ya'ni investitsiya ob'ektlari bilan bog'liqdir. Investitsiyalarni yo'naltirish sohalariga, ishlab chiqarishda ishtirokiga hamda sarflanish ishlariga binoan investitsiya faoliyatining quyidagi ob'ektlarini farqlash mumkin:

- xalq xo'jaligining barcha sohaları va tarmoqlaridagi yangidan yaratilgan va zamonaviylashtirilgan (yangilangan) asosiy fondlar va aylanma mablag'lar;
 - fan - texnika yutuqlari, izlanishlar, ta'limot, kadrlarni tayyorlash va qayta tayyorlash;
 - intellektual boyliklar, hamda avtorlik, ixtiro kashfiyot xuquqlari, tajriba;
 - qimmat baho qog'ozlar, maqsadli pul jamg'armalari:
- boshqa mulkchilik ob'ektlari;
- mulkiy xuquqlar.

qonunlarda va qonuniyatlarda ta'qiqlangan ekologik va boshqa me'yorlarga, sanitargigienik talablarga javob bermaydigan, yaratilishi va ishlatilishi mumkin bo'lmagan vositalar uchun investitsiyalarni yo'naltirish man etiladi va bu ishlar investitsiyalarni sarflash ob'ekti bo'la olmaydi. Fuqorolarni, yuridik shaxslarni va davlatni qonuniy huquq va manfaatlariga putur yetkazadigan ishlar uchun ham investitsiyalarni sarflash man etiladi.

Investitsiyalarni jalb qilish va sarflash sohalariga asosan, investitsiya faoliyati ob'ektlarini guruhini tuzish mumkin. Investitsiya faoliyatida sohalaridan birini, yoki bo'lmasa bir nechtasini tanlab olish xuquqiga investorlarning o'zlari ega bo'ladilar. Ularni xech kim soxa yoki investitsiya ob'ektlarini tanlashda majbur eta olmaydi. U yoki bu soxani tanlashda va investitsiyalarni ma'lum bir ob'ektlarga sarflashdagi qarorlarni investorlarning (investitsiya faoliyati sub'ektlari) o'zlari qabul qiladilar. Investitsiya faoliyati sub'ektlari bo'lib bir investor yoki bo'lmasa bir nechta tadbirkorlik hamda boshqa faoliyat bilan shugullanuvchi ishtirokchi investorlar bo'lishi mumkin. Investitsiya faoliyatidagi sub'ektlar investorlar bo'lib mahalliy va chet ellik (tashqi) fuqarolar, yuridik shaxslar yoki davlatlar hisoblanadi. Investitsiyalarni amalga oshirishni esa, qabul qilingan buyurtmalarni bajaruvchisi sifatida yoki investorni topshirig'i asosida, investitsiya faoliyatini ishtirokchilari ta'minlaydilar.

Investitsiyalar hajmini, sohalarini va natijalari boyicha samaradorligini investorlarning o'zlari mustaqil ravishda aniqlaydilar.

Rivojlangan mamlakatlarning investitsiyalarini moliyaviy va real investitsiyalar tashkil qilib, moliyaviy investitsiyalarining tarkibida asosiy o'rinni shaxsiy investitsiyalar tashkil etadi.

Shaxsiy investitsiyalar, tadbirkorlar, xususiy firmalar, kompaniyalar, kontsernlar, aksionerlik jamiyatlari yoki boshqa shakldagi mulk egalariining foyda (daromad), samara olish maqsadida davlat tomonidan taqiqlanmagan faoliyatlarga sarflaydigan mulkdorlik va intellektual boyliklarini bildiradi. Rivojlangan davlatlarda, shuningdek, qimmatbaho qog'ozlar bozori mavjud bo'lgan mamlakatlarda shaxsiy investitsiyalarni ko'pgina qismi maxsus investitsiya fondlari tomonidan sarflanadi. Investitsiya fondlari bozorida xizmat qiladi. Shu bilan birga, ba'zi rivojlangan mamlakatlarda investitsiyalar tarkibida davlatni ulushi o'sib borishi ham kuzatilmoqda.


Aksincha, real investitsiyalar esa moliyaviy investitsiyalardan farqlidirlar. Ular asosiy kapitalni va moddiy boyliklarni o'stirishga sarflanadigan quyilmalardir. Real investitsiyalarni sarfi asosiy fondlarni o'sishiga, yangilanishiga, ishlab turgan korxonalarni kengaytirishiga, moddiy boyliklarni ko'payishiga olib keladi. 2-sxemada investitsiya turlari va ularni moliyalash manbalari ko'rsatilgan. Xalq xo'jaligini ko'p yillar mobaynida ekstensiv uslub bilan rivojlanishi davlat tomonidan muvofiqlashtirib bo'lmaydigan investitsiya xarajatlariga olib keldi. Natijada, haddan tashqari ko'p asosiy ishlab chiqarish fondlari barpo etildi. Asosan ular harbiy sanoat kompleksida va tugallanmagan qurilishda o'lchamsiz moliyaviy resurslarning qotirilishiga: – (mablag' ajratilishini to'xtatilishiga) va tugatilmagan qurilishlarni to'xtatilishiga (konservatsiyasiga) olib keldi. Bunday ahvolning asosiy sabablari xududda uzoq yillar davomida markazlashgan rejalashtirishni mavjud bo'lganligi hamda uning oqibatida ijtimoiy va sanoat mahsulotlarining tarkibida ishlab chiqarish qurollarining haddan tashqari o'sishi bo'lgan.

Respublikamiz o'z mustaqilligini qo'lga kiritgach barcha soxada bo'lgani singari investitsiyalash va chet el investitsiyalarini jalb etish boyicha qator qonun va qaror, farmonlar qabul qilindi.

Bu qonun xujjatlarida nafaqat investitsiya faoliyatini tashkil etish balki chet el investitsiyalarni jalb etishning juda keng xuquqiy kafolatlari va imtiyozlari tizimi o'z aksini topgan. Yaratilgan qulay investitsiya muhiti birinchi novbatda mamlakatdagi siyosiy va iqtisodiy barqarorlik bilan tavsiflanadi.

O'zbekiston Respublikasining «Investitsiya faoliyati to'g'risida»gi qonuni (1998 yil 24 dekabr), «Chet el investitsiyalari to'g'risida»gi (1998 yil 30 aprel), «Xorijiy investirlar xuquqlarining kafolatlari va ularni ximoya qilish chora tadbirlari to'g'risida»gi (1998 yil 30 aprel) qonunlari va bir qator imtiyozlarni kafolatlovchi farmonlar e'lon qilindi. Respublikamizda bozor munosabatlarining shakllanishi investitsiya faoliyatini rivojlantirish va uning rolini oshirishni talab qilmoqda. Respublikamizda kichik va o'rta biznesning rivojlanishi investitsiya faoliyatiga bevosita bog'liq. Shunga mos ravishda investitsiya faoliyatini yaxshilash boyicha qator amaliy ishlar va imtiyozlar bajarilmoqda. Respublikada investitsiyalar uchun ishonchli sug'urta bazasi yaratilmoqda. Ayniqsa «O'zbekinvest» milliy sug'urta kompaniyasining tashkil etilishi diqqatga sazovordir. Respublikamizda davlat investitsiya siyosatini amalga oshirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar maxkamasining investitsiya dasturlari departamenti barpo etildi. 1998 yil fevral oyida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Xorijiy investitsiyalar bilan bog'liq loyihalarni amalga oshirish mexanizmini rag'batlantirish chora tadbirlari to'g'risida», hamda 2005 yil mart oyidagi «To'g'ridan-to'g'ri xususiy xorijiy sarmoyalarni jalb etishni rag'batlantirish chora tadbirlari to'g'risida»gi farmonlari, shuningdek Vazirlar maxkamasining 2000 yil 11 oktabr oyidagi 393 sonli «Qo'shma korxonalarni tashkil qilishda chet el investitsiyalarni jalb qilish boyicha qo'shimcha chora tadbirlar to'g'risida» gi qarorlari kabi bir qancha me'yoriy xujjatlar va xuquqiy asoslar qabul qilinmoqda.

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlarga ko'ra, tadbirkor hamda kichik va o'rta biznes bilan shugullanuvchi ishbilarmonlarga moliyaviy yordam ko'rsatish maqsadida moliyaviy resurslarni shakllantirish va foydalanish mexanizmini takomillashtirish boyicha qator amaliy ishlar qilinmoqda. Bunda mavjud ichki imkoniyatlar va chet el tajribalari tahlil qilinganda investitsiya siyosatini to'g'ri tashkil qilish Alohida ahamiyat kasb etadi. Hozirgi kunda bu soxada xalqaro standartlarni ishlab chiqish va investitsiya jarayonlarining qoidalarini, hamda jahon miqyosida xalqaro investitsiya hajmini tezkorlik bilan o'sib borishi ishbilarmonlarga, tadbirkorlarga amaliy yordam bermiqda.

BOZOR IQTISODIYOTIDA INVESTITSIYA TURLARI
INVESTITSIYALAR

Bozor iqtisodiyoti sharoitida investitsiyalarga bo'lgan ehtiyojni qondirishda ichki va tashqi moliyalash manbalaridan foydalaniladi. Investitsiyalarning ichki manbalari sifatida davlat byudjeti hamda tijorat banklari mablag'larini va xususiy investorlarni ko'rsatsak, tashqi manbalar sifatida xorij davlat mablag'larini, xususiy mulk egalarini, Jahon banki kreditlarini aytish mumkin.


Bugungi kunning asosiy vazifasi tadbirkorlarning tijorat kapitalini ishlab chiqarishni yo'lga qoyishga, ya'ni ishlab chiqarish investitsiyalariga aylantirishdan iborat.

II.Bob. Sho'rtaneftegaz unitar shu'ba korxonasida investitsiyalarni boshqarish samaradorligi tahlili.

2.1. Sho'rtaneftegaz unitar shu'ba korxonasida investitsiyalarni boshqarish samaradorligi tavsifi.

“O'zgeoburg'üneftgazqazibchiqarish” aksiyadorlik kompaniyasi tarkibidagi “Sho'rtaneftegaz” unitar shu'ba korxonasi O'zbekiston Respublikasining Vazirlar Mahkamasini 1998 yil 15 dekabr kunidagi 523-sonli qarori va “O'zgeoburg'üneftgazqazibchiqarish” AK Kuzatuv Kengashining 2000 yil 25 maydagi 96 son bayonnoma bilan tashkil qilingan. Yuridik shaxs maqomiga ega unitar korxona sifatida o'z faoliyatini O'zbekiston Respublikasi amaldagi qonunlari, Respublika Prezidentining Farmonlari, Vazirlar Mahkamasi qarorlari, “O'zbekneftgaz” MXK, “O'zgeoburg'üneftgazqazibchiqarish” AK qarorlari va mazkur Ustav asosida amalga oshiradi. “Sho'rtaneftegaz” USH korxonasi neft va gaz konlari boshqarmasi tomonidan tuzilgan shartnoma va majburiyatlarning xuquqiy vorisi xisoblanadi. Korxona mustaqil balansiga ega, davlat tilida uzining to'liq firma nomi va ijoylashgan joyi kursatilgan dumaloq muxrga, shtampga va nomi ko'rsatilgan qog'ozlarga ega. Korxona o'zining tovar belgisiga ega. Korxonaning faoliyati cheklanmagan. Korxona ta'sischisi “O'zgeoburg'üneftgazqazibchiqarish” aksiyadorlik kompaniyasi xisoblanib korxona ustav fondiga kiritgan omonati miqdorida majburiyatlarga javobgardir. Korxona faoliyatining asosiy maqsadi neft, gaz va gaz kondensatini qazib olish, xalq iste'moli mollarini ishlab chiqish va shuningdek axoliga pullik xizmat kursatishdan iborat.¹

¹ “Шуртаннефтваз” УШК Устави Ғузор тумани-2000 йил




Rasm 2.1.1. “Sho’rtanneftgaz” unitar shu’ba korxonasi boshqaruvining tashkiliy tuzilmasi

“Sho’rtanneftgaz” unitar shu’ba korxonasining tashkiliy tuzilmasi hozirgi zamon talablariga javob beradigan murakkab, yetmish ikki bo’limdan iborat, yettita yo’nalishda tegishli boshliq o’rinbosarlari javobgarligida bosh muhandis nazoratida qo’yidagilardan iborat: ishlab chiqarish bo’yicha boshliq o’rinbosari; tub ta’mirlash bo’yicha boshliq o’rinbosari; moddiy texnik ta’minot bo’yicha boshliq o’rinbosari; bosh maslaxatchi; iqtisod va moliya bo’yicha boshliq o’rinbosari; bosh geolog; bosh metrolog va xafsiqlik va qo’riqlash bo’yicha boshliq o’rinbosari.

“Sho’rtanneftgaz” unitar shu’ba korxonasida investitsiyalarni boshqarish samaradorligi tavsiflaydigan bo’lsak ushbu korxonada investorni qiziqtiruvchi xususiyatlar quyidagilardir:

- korxonaning rivojlanish darajasi, korxonadagi rakobatchilik xarakateri;
- innovatsiyalar va texnologiyalarning korxonadagi ahamiyati;
- keyingi bir necha yil ichida korxonadagi umumiy sotish hajmlari;
- korxonaning kutilayotgan o’sishi;
- so’nggi yillarda korxonada paydo bo’lgan yangi mahsulotlar;
- korxonaning moliyaviy axvoli;



Rasm.2.1.2. Sho‘rtanneftgaz USHKda investitsiyalarni jalb etish xususiyatlari

Korxonada investitsiyalar, asosan, ishlab chiqarish fondlariga yo‘naltirilgan. Iqtisodiy o‘rishga erishish uchun nafaqat investitsiya xajmini ko‘paytirish, balki ular yo‘nalishini va tuzulmasini to‘g‘ri tanlash ham muhim ahamiyat kasb etadi. Investitsiyalash uchun shunday ishlab chiqarish turlarini tanlash zarurki, ular tezda o‘zini qoplab, yuqori darajada iqtisodiy va texnologik samara bera olsinlar. Bunday holatda investitsiyaning tezda qaytarilishi va qanchalik samaradorligi muhim ahamiyat kasb etadi. Bu investitsion jarayonni jonlantirish uchun turtki berish, keyinchalik esa investitsiyalash uchun afzal korxonalar va xo‘jalik yuritish subektlarini tanlashga imkoniyat yaratish mumkin. Investitsiyalarni moliyalashtirishning qisqa muddatli siyosati iqtisodiy o‘rishni ta‘minlovchi yo‘nalishlar ahamiyatini hisobga olib, uzoq muddatga mo‘ljallangan strategiyaga ega bo‘lishi lozim.

Yuqorida ta‘kidlab o‘tilganidek markazlashgan investitsiyalar, asosan yangi texnologiyalarni yaratishga, ularni qayta qurishga qaratilmoqda. Ammo shuni qayd qilish lozimki O‘zbekiston Respublikasi Hukumati tomonidan xar yili iqtisodiy qayta tuzilmaviy isloxlarni o‘tkaza borib, xalqaro mehnat taqsimoti qulayliklaridan ko‘prok foydalanishga intilmoqda va qulay investitsiya muhitini yaratib bermoqda.


Hozirgi kunda Sho‘rtanneftgaz unitar shu‘ba korxonasini tarkib toptirish shakllarining(sabablarining) uch turkumini ajratib ko‘rsatish mumkin: ichki, tashki va strategik. Ichki sabablar tavakkalchilik va xarajatlarni birgalikda ko‘tarishni, innovatsiya uchun qulay tartib bunyod etishni hamda xom ashyo resurslaridan foydalanishni osonlashtirishni ko‘zda tutadi.

Hozirgi iqtisodiy sharoitda korxonaning ichki mablag‘lari iqtisodiy o‘rishni to‘liq ta‘minlay olmaydi:

- birinchidan, bu mablag‘lar investitsion dasturlar uchun juda kam, bu esa o‘z navbatida umumiqqtisodiy o‘rishning cho‘zilishga olib keladi;
- ikkinchidan, korxona ichki mablag‘ning kapital qo‘yilmalari moliyalashtirish uchun ishlashtilishi resurslarining iqtisodiyot tarmoqlariga oqib o‘tishni qiyinlashtiradi.

Sho‘rtanneftgaz unitar shu‘ba korxonasi tomonidan investitsiyalarni qaysi manbalar hisobida moliyalashtirish ustida bosh kotirishlariga zaruriyat paydo bo‘lmoqda. Bu esa ko‘pgina muhim omillarni xisobga olishni taqozo etadi. Iqtisodiy omillar (mablag‘lar olish imkoniyati va

vaqti, soliqlar olinishi hisobi bilan moliyalash manbasining summasi, investitsion loyihani amalga oshirish bilan daromad miqdori, moliyalashtirish manbasining korxona barqarorligi va quvvatligiga ta'siri va hokazolar) va korxona rahbariyati, hissadorlik va kreditorlar manfaatlari o'rtasida vujudga keladigan nizo omillari shular jumlasidandir.



Rasm 2.1.3. Sho'rtanneftgaz unitar shu'ba korxonasida investitsiyalarni moliyalashning iqtisodiy omillari.

Sho'rtanneftgaz unitar shu'ba korxonasi qisqa vaqt ichida ishlab chiqarish hajmlarining barqaror o'sishini ta'minlashida Respublika hukumati o'tkazayotgan investitsiya siyosati katta rol o'ynamokda. Investitsiya faoliyatining shart-sharoitlarini belgilaydigan qonunlarini rivojlantirish va takomillashtirish davom etmokda. Ular investitsiyalar va eksportni yanada rag'batlantirishga qaratilgan. Shunga qaramay, neft va gazni qayta ishlab chiqaruvchi korxonalarda investitsiya siyosatini faollashtirish bilan bogliq bo'lgan ko'pgina masalalar borki, ularni ham hal qilish zarur.

Sho'rtanneftgaz unitar shu'ba korxonasida investitsiya siyosatining asosiy yo'nalishlari bo'lib quyidagilar hisoblanadi:

- iqtisodiyot tarkibiy o'zgarayotganda ishlab chiqarishni texnik jihatdan qayta qurollantirish va modernizatsiyalashni jadallashtirishda xorijiy kapitalning faol ishtirok etilishini ta'minlash;
- O'zbekiston iqtisodiyotini jahon iqtisodiy tizimiga keng darajada integratsiyalash uchun zarur bo'lgan shart-sharoitlarga monand korxonada xam ularni yaratish;
- o'zini o'zi valyuta bilan qoplashni ta'minlovchi ishlab chiqarish loyihalariga yo'naltirilgan investitsiyalarga ko'maklashish;
- korxonaning chet el kreditlariga layoqatliligini qo'llab-quvvatlash hamda yuqori darajadagi kredit oluvchi sifatidagi obro'-e'tiborini ta'minlash;
- ijtimoiy va ekologik dasturlarni hal etishga yo'naltirilgan investitsiyalarga ko'maklashish.

Rivojlangan mamlakatlar tajribasi shuni ko'rsatadiki, bozor islohotlarini chuqurlashtirish sharoitida investitsiyalar nafaqat ishlab chiqarishni rekonstruksiyalash va yangilash, balki yangi ishlab chiqarish va korxonalarni yaratishning muhim omiliga aylanadi. Shunga ko'ra, korxonaga chet el kapitalini jalb etish va foydalanish hozirgi bosqichdagi investitsiya jarayonining ahamiyatli qonuniyati bo'lib hisoblanadi. Bunda xorijiy investitsiyalarni jalb etish ijtimoiy-iqtisodiy samaradorlik, iqtisodiy xavfsizlik, davlat tarkibiy va takror ishlab chiqarish siyosatining o'zaro foydaliligi va ustuvorligini qo'llab-quvvatlash tamoyillari asosida amalga oshishi zarur.

Mazkur tamoyillarga tayangan holda investitsiya faoliyatining optimal shakllarini to'g'ri tanlashning mezonlarini aniqlab olish lozim. Bu mezonlarga quyidagilar kiradi:

1. faoliyat sohasi va mahsulot turi (ilmiy jihatdan katta salmoqqa ega, texnik jihatdan murakkab va boshqalar);
2. loyiha miqyoslari (mayda, o'rta va yirik);
3. jalb etishning strategik maqsadi (asbob-uskunalar importidan tortib to ishlab chiqarish-boshqaruv tajribasidan foydalanishgacha).

Qulay investitsion muhitni shakllantirishning mavjud yutuq va kamchiliklarini o'rganish shuni ko'rsatadiki, eng maqbul shakl sifatida bevosita investitsiyalar hisoblanishi mumkin. Chunki ular investitsiyani uzoq muddatli manfaatdorligini mavjud bo'lishi va tashqi qarzlariga nisbatan katta foyda keltirishi bilan xarakterlanadi.

Investitsion loyihalarni tayyorlash va amalga oshirishdagi byurokratik to'siqlar va sansalorliklarni bartaraf qilish, loyihalarni tanlab olish va ro'yobga chiqarish mexanizmini tartibga solish, kelishuvlar va tegishli ruxsat beruvchi hujjatlarni berish tartibini soddalashtirish maqsadida 1998 yil 9 fevralda Uzbekiston Respublikasi Prezidentining "Xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi loyihalarni amalga oshirish mexanizmini takomillashtirish bo'yicha chora-tadbirlar to'g'risida" gi Farmoni qabul qilingan. Hozirgi paytda mazkur Farmon talablariga muvofiq mamlakatimizda investitsiya siyosati asosan Vazirlar Mahkamasi Iqtisodiyot va tashqi iqtisodiy aloqalar, investitsiyalar va savdo vazirligi tomonidan amalga oshirilmoqda. Xususan, ularning faoliyatida investitsiya loyihalarini amalga oshirish bo'yicha quyidagi yo'nalishlar belgilangan: investitsiya loyihalarini amalga oshirishning barcha bosqichlarida ularning harakatiga to'sqinlik qiluvchi omillarni ochib berish va bartaraf etish; investitsiya faoliyatining meyoriy-huquqiy bazasini takomillashtirish bo'yicha takliflar tayyorlash; investitsiya dasturlarini amalga oshirish bilan bog'liq bo'lgan masalalarni ko'rib chiqish muddatlarini tartibga solish.

Milliy iqtisodiyotni tarkibiy qayta qurishning hozirgi bosqichida eng katta qiziqish to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarga namoyon bo'lmokda. jumladan, 2005 yilning 11 aprelida qabul qilingan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "To'g'ridan-to'g'ri xususiy xorijiy investitsiyalarni jalb etishni rag'batlantirish borasidagi qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi Farmoni bu fikrlarning yaqqol dalilidir. Mazkur Farmonga binoan, 2005 yilning 1 iyulidan boshlab to'g'ridan-to'g'ri xususiy xorijiy investitsiyalarni jalb qiladigan korxonalar quyidagi soliq va majburiy ajratmalarni to'lashdan ozod etiladi:

- asosiy faoliyati bo'yicha daromad (foyda) solig'i;
- mulk solig'i;
- ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish va hududlarni obodonlashtirish solig'i;
- ekologiya solig'i;
- mikrofirmalar va kichik korxonalar uchun belgilangan yagona soliq;
- Respublika yo'l jamg'armasiga ajratma.

Ularni jalb etishning asosiy usullari bo'lib quyidagilar hisoblanadi: qo'shma korxonalarni tashkil etish (shu jumladan, xorijiy investorlarga o'zbek emitentlarining aksiya paketlarini sotish orqali);

Uzbekiston hududida to'lasicha chet el kapitaliga tegishli bo'lgan korxonalarni ro'yxatdan o'tkazish; konsessiya asosida xorijiy kapitalni jalb etish; mamlakatning ma'lum mintaqalariga chet ellik investorlarni faol jalb qilishga yo'naltirilgan erkin iqtisodiy hududlarni tashkil etish.

O'zbekistonning Davlat investitsiya dasturini hayotga tatbiq etish orqali tarmoq va hududiy jihatdan tarkibiy qayta qurishning vazifalarini hal etishda bevosita xorijiy investitsiyalarning yanada yuqori samaradorligiga, shuningdek, bevosita xorijiy qo'yilmalarning ahamiyatli darajada ko'payishiga erishish mumkin. Uzbekiston Respublikasi uchun bu borada qo'llash zarur bo'lgan chora-tadbirlar qatoriga quyidagilarni kiritish mumkin:

- alohida tarmoq va mintaqalarda xorijiy investorlar uchun real va amal qiluvchi imtiyozlar tizimini (xususan, erkin iqtisodiy hududlarni) yaratish;
- xo'jalik yurituvchi subektlar, yuqori turuvchi idoralar (konsern, uyushmalar va h.k.) va mahalliy hokimiyat tuzilmalari o'rtasidagi mulkchilik va vakolatlarni aniq bo'lib olinishi;
- barqaror iqtisodiy va tashqi savdo qonunchiligini, shu jumladan, erkin iqtisodiy hududlar va konsessiyalar bo'yicha huquqiy bazani yaratish;

- soliq yukini kamaytirish va soliq tuzilmasini soddalashtirish; xorijiy investitsiyalarni sugurtalashning samarali mexanizmlarini yaratish;
- iqtisodiyot tarmoqlarini monopoliyadan chiqarish bo'yicha aniq chora-tadbirlarni amalga oshirish;
- iqtisodiyotning asosiy tarmoqlarini yakka tartibdagi loyihalar bo'yicha xususiylashtirishni amalga oshirish;
- birja va birjadan tashqari bozorlarda aksionerlik jamiyatlari aksiya paketining bir qismini xorijiy investorlarga sotish;
- barqaror talabga ega bo'lgan mahsulot ishlab chiqaruvchi va xizmat ko'rsatuvchi korxonalarni xorijiy investorlarning to'liq mulki sifatida sotish.

Xulosa qilib, shuni ta'kidlash lozimki, davlatning tuzilmaviy investitsion siyosatda faqatgina bozor mexanizmiga tayanib ish tutish mumkin emas. Chunki u iqtisodiyotning tarmoqlariga turlicha ta'sir ko'rsatadi. O'zbekiston hududlarida investitsiyalar, asosan, transport, aloqa, yoki ilg'i va quvvat ishlab chiqaruvchi tarmoqlar 2000 yildan buyon investitsiyalarni jalb etuvchi asosiy tarmoqlar bo'lib, ularning ulushlari mutanosib ravishda o'sib borish tendensiyasiga ega bo'lmoqda.

2.2. Sho'rtanneftgaz unitar shu'ba korxonasida investitsiyalarni boshqarish samaradorligi iqtisodiy ko'rsatkichlari tahlili.

Sho'rtanneftgaz unitar shu'ba korxonasida investitsiyalarni boshqarish samaradorligining iqtisodiy ko'rsatkichlari tahlili orqali moliyaviy ahvoli va ishlab chiqarish unumdorligi darajasini bilib olish mumkin. Korxona faoliyatining asosiy yo'nalishi neft va gaz maxsulotlarini ishlab chiqarish bo'lib, u ichki va tashqi bozorlarda faoliyat yuritishga yo'naltirilgan bozor talablariga to'laligicha mos keladi. Xozirgi davrda jaxon bozorlarida neft va gaz maxsulotlarini narxi keskin oshib borayotgan bir paytda Sho'rtanneftgaz unitar shu'ba korxonasida neft va gazni ishlab chiqarishni ko'paytirishga, samaradorlikni oshirishga va foydani kupaytirishga, moliyaviy va ishlab chiqarish resurslari xarajatlarini minimum darajada pasaytirishga erishmoqda.

Sho'rtanneftgaz unitar shu'ba korxonasining iqtisodiy ko'rsatkichlarini tahlil qilish maqsadida jamiyatning 2009-2011 yillardagi xisobotini tahlil qilib chiqamiz.

(mln. so'm hisobida)

T/r	Ko'rsatkichlar nomi	Yillar			O'zgarishi 2011 yil 2009 yilga nisbatan(+,-), (%)
		2009	2010	2011	
1.	Mahsulot sotishdan sof tushum	265000	361373	436437	(171437) (164 %)
2.	Asosiy faoliyatdan boshqa tushum	43513	59338	71664	(2815141039766) (163 %)
3.	Sotilgan mahsulotlar tannarxi	114224	155254	163507	(49283) (143.1 %)
4.	Davr xarajatlari	169654	231352	279409	(109755) (163 %)
5.	Daromad solig'i	6175	8239	13379	(7204) (216.6 %)

6.	Boshqa soliqlar	2265	3022	4907	(2642) (216 %)
7	Sof foyda	32500	43365	70420	(37920) (217 %)

Jadval 2.2.1. “Sho‘rtanneftgaz unitar shu’ba korxonasining 2009-2011 yillardagi moliyaviy natijalar tug‘risida ma’lumot²

Sho‘rtanneftgaz unitar shu’ba korxonasining 2009-2011 yillardagi umumiy daromadlarini tahlil qiladigan bo‘lsak korxonada 2009 yilda mahsulot sotishdan sof tushum 265000 mln.so‘mni tashkil etgan bo‘lsa, 2010 yilda 361373 mln.so‘mni tashkil etgan, 2011 yilda esa 436437 mln.so‘m bo‘lgan, bu 2009 yilga nisbatan 171437 mln.so‘m ko‘p, ya’ni korxonada mahsulot sotishdan sof tushum 164 foizga oshgan. Korxonaning asosiy faoliyatdan boshqa tushum 2009 yilda 43513 mln.so‘m, 2010 yilda 59338 mln. so‘mni tashkil etgan, 2011 yilda esa 71664 mlng so‘m bo‘lgan, tahlil qilib ko‘rganimizda 2011 yilda 2009 yilga nisbatan 28151 mln. so‘mga ko‘paygan, ya’ni korxonada asosiy faoliyatdan boshqa tushum 164.6 foizga oshgan.

Korxonada sotilgan mahsulotlar tannarxi 2009 yilda 114224 mln. so‘mni tashkil etgan, 2010 yilda 155254 mln.so‘m bo‘lgan, 2011 yilda 163507 mln. so‘mga ko‘paygan, bu esa 2009 yilga nisbatan 49283 mln. so‘mga yoki 143.1 foizga oshganini bildiradi. Korxonada davr xarajatlari 2009 yilda 169654 mln. so‘m bo‘lib, 2010 yilda 231352 mln. so‘mni tashkil etgan, 2011 yilda 279409 mln. so‘m bo‘lib, 2009 yildagi davr xarajatlariga nisbatan 109755 mln. so‘mga yoki 163 foizga oshgandir. Korxonada daromad solig‘i 2009 yilda 6175 mln.so‘m bo‘lgan, 2010 yilda 8239 mln. so‘m, 2011 yilda esa 13379 mln. so‘mni tashkil etgan, bu esa 2009 yilga nisbatan 7204 mln. so‘mga yoki 216.6 foizga oshganidan dalolat beradi. Boshqa soliq turlarini tahlil qilib ko‘rganimizda 2011 yilda 2009 yilga nisbatan 2642 mln. so‘mga yoki 2.6 barovarga oshganini ko‘rishimiz mumkin. Natijada 2009 yilda sof foyda 32500 mln. so‘mni tashkil etgan bo‘lsa, 2010 yilda 43365 mln. so‘mni tashkil etdi va 2011 yilda 70420 mln.so‘mni tashkil etib 2009 yilga nisbatan 37920 mln. so‘mga yoki 217 foizga oshgan. Sho‘rtanneftgaz unitar shu’ba korxonasining ishlab chiqarish faoliyati moddiy va mehnat xarajatlari bilan bog‘liq. Davr xarajatlari tarkibida avvalam bor quyidagilar nazarda tutiladi: sotish xarajatlari; ma’muriy xarajatlar; boshqa operatsion xarajatlar; kelgusida solikka tortiladigan bazadan chiqariladigan xisobot davri xarajatlari.

(mln.so‘m hisobida)

T/r	Ko‘rsatkichlar nomi	Yillar			O‘zgarishi (+,-) 2011 yil 2007 yilga nisbatan
		2009	2010	2011	
1.	Sotilgan mahsulotlar tannarxi	114224	155254	163507	49283
2.	Davr xarajatlari. Jumladan:	169654	231352	279409	109755
	a)Sotish xarajatlari	17644	24061	29059	11415
	b)ma’muriy xarajatlar	5429	7403	8941	3512
	v)boshqa operatsion xarajatlar	146581	199888	241409	94828
3.	Foizlar shaklidagi	2605	3552.5	4290.4	1685.4

² Shurtanneftgaz unitar shu’ba korxonasining 2009-2011 yillardagi moliyaviy axvoli tugrisida xmsoboti

	xarajatlar				
4.	Valyuta kurs farqidan zararlar	3837.3	5232.9	6319	2481.7

Jadval 2.2.2. “Sho‘rtanftgaz unitar shu’ba korxonasining 2009-2011 yillardagi xarajatlar tarkibi tug‘risida ma’lumot”³

Sho‘rtanftgaz unitar shu’ba korxonasining 2009-2011 yillaridagi umumiy xarajatlarning tarkibiy tahlilini ko‘rib chiqadigan bo‘lsak, korxonada sotilgan mahsulotlar tannarxi 2009 yilda 114224 mln. so‘mni tashkil etgan, 2010 yilda 155254 mln. so‘m bo‘lgan, 2011 yilda esa 163507 mln. so‘m bo‘lib, 2009 yilga nisbatan 49283 mln. so‘mga yoki 143.1 foizga oshgan. Davr xarajatlari 2009 yilda 169654 mln. so‘m bo‘lgan, 2010 yilda 231352 mln. so‘mni tashkil etib, 2011 yilda 279409 mln. so‘mga yetgan, bu esa 2009 yilgi davr xarajatlardan 109755 mln. so‘mga yoki 163 foizga ko‘p demakdir. Davr xarajatlari jumlasiga sotish xarajatlari, ma‘muriy va boshqa operatsion xarajatlar kiritilgan bo‘lib, korxonada sotish xarajatlari 2009 yilda 17644 mln. so‘m, 2010 yilda 24061 mln. so‘m, 2011 yilda 29059 mln. so‘mni tashkil etgan, bu esa 2009 yilga nisbatan 11415 mln. so‘m ko‘p demakdir. Ma‘muriy xarajatlar 2009 yilda 5429 mln. so‘m, 2010 yilda 7403 mln. so‘m, 2011 yilda esa 8941 mln. so‘mni tashkil etgan, bu esa 2009 yilga nisbatan 3512 mln. so‘mga ko‘p demakdir. Korxonaning boshqa operatsion xarajatlari 2009 yilda 146581 mln. so‘m, 2010 yilda 199888 mln. so‘mni, 2011 yilda esa 241409 mln. so‘mni tashkil etgan. 2011 yilni 2009 yilga nisbatan o‘zgarishini tahlil qilsak 94828 mln. so‘mga ko‘payganini ko‘ramiz.

Bundan tashqari Sho‘rtanftgaz unitar shu’ba korxonasining 2009-2011 yillaridagi foizlar shaklidagi xarajatlar 2009 yilda 2605 mln. so‘mni tashkil etgan, 2010 yilda 3552.5 mln. so‘m bo‘lgan, 2011 yilda esa 4290.4 mln. so‘m bo‘lib, 2009 yilga nisbatan 1685.4 mln. so‘mga oshgan. Valyuta kurs farqidan zararlar 2009 yilda 3837.3 mln. so‘m bo‘lgan, 2010 yilda 5232.9 mln. so‘mni tashkil etib, 2011 yilda 6319 mln. so‘mga yetgan, bu esa 2009 yilga nisbatan 2481.7 mln. so‘mga oshganligini taxlildan ko‘rdik.

Sho‘rtanftgaz unitar shu’ba korxonasining moliyaviy ahvoli haqida yetarlicha ma’lumotga ega bo‘lish uchun korxonaning 1-sonli Shakl Buxgalteriya balansi ko‘rsatkichlarini tahlil qilib chiqamiz.

T/r	Ko‘rsatkichlar nomi	O‘lchov birligi	2010 yil	2011 yil	Farqi (+,-)
1.	Asosiy vositalarning qoldiq qiymati	mln so‘m	1836339	1881617.1	45278.1
2.	Nomoddiy aktivlarning qiymati	mln so‘m	13.9	13.9	0
3.	Uzoq muddatli investitsiyalar	mln so‘m	1806	2951.3	1145.3
4.	Kapital quyilmalar	mln so‘m	56150.1	119981.5	63831.4
5.	Uzoq muddatli debitorlik qarzlari	mln so‘m	258.5	1095	836.5
6.	Tovar moddiy zaxiralar	mln so‘m	23031.7	35031	11999.3
7.	Xaridor va buyurtmachilar qarzi	mln so‘m	150140.4	129912.4	-20228
8.	Boshqa aktivlar	mln so‘m	61892.3	213191	151298.7
	JAMI AKTIV	mln so‘m	2129631.9	2383793.2	254161.3

³ Shurtanftgaz unitar shu’ba korxonasining 2009-2011 yillardagi moliyaviy axvoli tugrisida xisoboti

Jadval 2.2.3. Sho‘rtanneftgaz unitar shu’ba korxonasining 2010-2011 yillardagi 1-son shakl ko‘rsatkichlari tug‘risida ma’lumot⁴

Sho‘rtanneftgaz unitar shu’ba korxonasi xisobidagi asosiy vositalarning pul ko‘rinishidagi qoldiq qiymati 2010 yil oxirida 1836339 mln.so‘mni tashkil etgan, yil davomida qushimcha asosiy vositalar kirim qilinishi sababli 2011 yil oxiriga kelib asosiy vositalarning qoldiq qiymati o‘tgan yilga nisbatan 45278.1 mln.so‘mga oshgan va 1881617.1 mln.so‘mni tashkil etdi. Nomoddiy aktivlarning qiymati 2010 yil davomida 13.9 mln.so‘mni tashkil etib o‘zgarishsiz qolgan. Korxonaga kiritilgan uzoq muddatli investitsiyalar qoldig‘i 2010 yil oxirida 1806 mln.so‘mni tashkil etgan bo‘lsa 2011 yil oxiriga kelib bu ko‘rsatkich 2951.3 mln.so‘mni tashkil etdi yoki o‘tgan yilga nisbatan 1145.3 mln.so‘mga ko‘paydi. Kapital quyilmalar bo‘yicha 2010 yil oxirida 56150.1 mln.so‘mni tashkil etgan va 2011 yil oxiriga kelib 119981.5 mln.so‘mga yetgan ya’ni 63831.4 mln.so‘mga oshgan. Uzoq muddatli debitorlik qarzlari 2010 yil oxirida 258.5 mln.so‘mni tashkil etib 2011 yil oxirida bu kursatkich 1095 mln.so‘mga yoki 836.5 mln.so‘mga oshgan. Tovar moddiy zaxiralar 2010 yil oxirida 23031.7 mln.so‘mni tashkil etib 2011 yil oxirida 35031 mln.so‘mni tashkil etgan yoki 11999.3 mln.so‘mga oshgan. Xaridor va buyurtmachilar qarzi 2010 yilda 150140.4 mln so‘mni tashkil etgan 2011 yil oxiriga kelib qarzdorlik 129912.4 mln.so‘mni tashkil etgan va o‘tgan yilga nisbatan 20228 mln.so‘mga kamaygan. Boshqa aktivlar 2010 yilda 61892.3 mln so‘mni tashkil etgan bo‘lsa 2011 yilga kelib bu kursatkich 213191 mln.so‘mni tashkil etdi yoki o‘tgan yilga nisbatan 151298.7 mln so‘mga oshgan. Jami aktivlar 2010 yilda 2129631.9 mln.so‘mni tashkil etgan bo‘lsa 2011 yilga kelib jami aktivlarning qoldiq qiymati 2383793.2 mln.so‘mni tashkil etdi yoki o‘tgan yilga nisbatan 254161.3 mln.so‘mga oshgan. Taxlil qiladigan bo‘lsak xaridor va buyurtmachilarning qarzi kamaygani korxonani likvid mablag‘larini ortganini bildiradi yoki majburiyatlarni qoplash uchun yetarli pul mablag‘lari mavjudligidan dalolatdir. Uzoq muddatli investitsiyalar va kapital quilmalarni ortib borishi korxonada investitsiyalarni boshqarish usullarini takomillashuvidan dalolat beradi.

Sho‘rtanneftgaz unitar shu’ba korxonasining 1-son shakl balansini aktiv qismi bilan birga passiv qismini xam taxlil qilib ko‘ramiz. Passiv qismi o‘z mablag‘lar manbai va majburiyatlardan iboratdir. Korxona balansining aktiv qismi passiv qismiga mos kelishi yoki balans berishi korxonaning moliyaviy mablag‘lari va investitsiyalarni boshqarish bo‘yicha tashkiliy, iqtisodiy, xuquqiy va texnik ta’minoti nazorat qilinishidan dalolat beradi.

T/r	Ko‘rsatkichlar nomi	O‘lchov birligi	2010 yil	2011 yil	Farqi (+,-)
1.	Ustav kapitali	mln so‘m	47965.3	47965.3	0
2.	Rezerv kapitali	mln so‘m	690381	688943	-1438
3.	Maqsadli tushumlar	mln so‘m	915909.7	1123796.7	207887
4.	Uzoq muddatli majburiyatlar	mln so‘m	46885.7	24586	-22299.7
5.	Mol yetkazib beruvchilarga qarz	mln so‘m	31225	33582.3	2357.3
6.	Shu’ba va karam jamiyatlariga qarz	mln so‘m	94739.4	150352.4	55613
7.	Solik va majburiy tulovlar bo‘yicha kechiktirilgan qarz	mln so‘m	243822	254943	11121
8.	Byudjetga tulovlar	mln so‘m	19822	28591.6	8769.6

⁴Shurtanneftgaz unitar shu’ba korxonasining 2010-2011 yillardagi 1-son shakl xisoboti

	bo'yicha qarz				
9	Boshqa passivlar	mln so'm	38881.8	31032.9	-7848.9
	JAMI PASSIV	mln so'm	2129631.9	2383793.2	254161.3

Jadval 2.2.4. Sho'rtanneftgaz unitar shu'ba korxonasining 2010-2011 yillardagi 1-son shakl ko'rsatkichlari tug'risida ma'lumot⁵

Sho'rtanneftgaz unitar shu'ba korxonasi tasdiqlangan Ustav kapitalining qiymati 2010 yilda 47965.3 mln.so'mni tashkil etgan, 2011 yilda xam ustav kapitali o'zgarmagan ya'ni 47965.3 mln.so'mni tashkil etgan. Rezerv kapitalining qoldig'i 2010 yil oxirida 690381 mln.so'mni tashkil etgan bo'lsa 2011 yil oxiriga kelib bu ko'rsatkich 688943 mln.so'mni tashkil etdi yoki o'tgan yilga nisbatan 1438 mln.so'mga kamaydi. Maqsadli tushumlar bo'yicha 2010 yil oxirida 915909.7 mln.so'mni tashkil etgan va 2011 yil oxiriga kelib 1123796.7 mln.so'mga yetgan ya'ni 207887 mln.so'mga oshgan. Uzoq muddatli majburiyatlar 2010 yil oxirida 46885.7 mln.so'mni tashkil etib 2011 yil oxirida bu kursatkich 24586 mln.so'mga yetgan yoki 22299.7 mln.so'mga kamaygan. Mol yetkazibyu beruvchi va pudratchilarga qarz 2010 yilda 31225 mln.so'mni tashkil etib 2011 yil oxirida 33582.3 mln.so'mni tashkil etgan yoki o'tgan yilga nisbatan 2357.3 mln.so'mga oshgan. Shu'ba va qaram jamiyatlariga qarz 2010 yilda 94739.4 mln so'mni tashkil etgan, 2011 yil oxiriga kelib qarzdorlik 150352.4 mln.so'mni tashkil etgan va o'tgan yilga nisbatan 55613 mln.so'mga oshgan. Soliq va majburiy tulovlar bo'yicha kechiktirilgan qarz 2010 yilda 243822 mln so'mni tashkil etgan, 2011 yil oxiriga kelib kechiktirilgan qarzdorlik 254943 mln.so'mni tashkil etgan va o'tgan yilga nisbatan 11121 mln.so'mga oshgan. Byudjetga to'lovlar bo'yicha qarz 2010 yilda 19822 mln so'mni tashkil etgan, 2011 yil oxiriga kelib qarzdorlik 28591.6 mln.so'mni tashkil etgan va o'tgan yilga nisbatan 8769.6 mln.so'mga oshgan. Boshqa passivlar bo'yicha 2010 yilda 38881.8 mln so'mni tashkil etgan bo'lsa 2011 yilga kelib bu kursatkich 31032.9 mln.so'mni tashkil etdi yoki o'tgan yilga nisbatan 7848.9 mln so'mga kamaydi. Jami passivlar bo'yicha 2010 yilda 2129631.9 mln.so'mni tashkil etgan bo'lsa 2011 yilga kelib jami passivlarning qoldiq qiymati 2383793.2 mln.so'mni tashkil etdi yoki o'tgan yilga nisbatan 254161.3 mln.so'mga oshgan. Taxlil qiladigan bo'lsak uzoq muddatli majburiyatlar va boshqa passivlarning kamaygani korxona majburiyatlari qoplash uchun yetarli pul mablag'lari mavjudligidan dalolatdir.


III.Bob. Sanoat ishlab chiqarishda investitsiyalarni boshqarish samaradorligini takomillashtirish yo'llari.

3.1. Sanoat ishlab chiqarishda investitsiyalarni boshqarish samaradorligini takomillashtirishning iqtisodiy usullari.

Xurmatli prezidentimiz I.A.Karimovning "O'zbekiston Respublikasining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning 2011 yildagi asosiy yakunlari to'g'risida" gi maruzalarining ayrim iqtisodiy ko'rsatkichlariga to'xtalib o'tamiz.

"Oxirgi yillarda va o'tgan yili mamlakatimiz iqtisodiyotini rivojlantirish borasida qo'lga kiritilgan natijalar Xalqaro valyuta jamg'armasi, Jahon banki, Osiyo taraqqiyot banki va boshqa nufuzli xalqaro moliya tashkilotlari tomonidan yuksak baholanmoqda"- deb ta'kidladilar Prezidentimiz I.A. Karimov

⁵ Shurtanneftgaz unitar shu'ba korxonasining 2010-2011 yillardagi 1-son shakl xisoboti



Rasm.3.1.1. O'zbekistonning asosiy makroiqtisodiy kursatkichlari


Asosiy makroiqtisodiyot ko'rsatkichlari 2011 yil bo'yicha yalpi ichki maxsulotning (YAIM) o'sish sur'ati 8.3 foizga yetdi yoki 2009 yildagi ko'rsatkichga nisbatan 0.2 foizga ko'p bo'ldi, bu esa xali davom etayotgan jaxon moliyaviy iqtisodiy inqiroz davrida respublikamiz prezidenti tomonidan olib borilayotgan "o'zbek modeli" iqtisodiy isloxotlarining natijalaridir.

Iqtisodiyotning barcha soxalarida jadallashgan makroiqtisodiy o'sish kuzatildi. Jumladan, sanoat ishlab chiqarishida — 106,3 foiz, qishloq xo'jaligi maxsulotlari yetishtirishda — 106,6 foiz, axoliga pulli xizmat ko'rsatish soxasida — 116,1 foizga o'sdi.

Ko'rsatkich	2007 yil	2008 yil	2009 yil	2010 yil	2011 yil
Sanoat ishlab chiqarishi	12,1	12,7	9,0	8,3	6,3
Qishloq xo'jaligi mahsulotlari yetishtirish	6,1	4,5	5,7	6,8	6,6
Chakana savdo aylanmasi	21,0	7,2	16,6	14,7	16,4
Aholiga pullik xizmatlar ko'rsatish	20,6	21,3	12,9	13,4	16,1

Rasm.3.1.2. O'zbekistonning asosiy makroiqtisodiy kursatkichlari

Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarni modernizasiya qilish, texnik va texnologik qayta jihozlash hamda zamonaviy, yuksak texnologiyalarga asoslangan yangi ishlab chiqarishni tashkil etishni tezlashtirish borasida davlat tomonidan oqilona, faol investitsiya siyosati olib borildi. Buni o'zlashtirilgan kapital qo'yilmalar miqdoridan ham bilib olish mumkin. Iqtisodiyotimizga kiritilayotgan investitsiyalarning yildan-yilga o'sib borishida yurtimizdagi mavjud investitsion sharoit va qulay investitsiya muhiti alohida ahamiyat kasb etayotganini ta'kidlash joiz. Bunda ayniqsa quyidagi asosiy omillarni ham qayd etish o'rinlidir:




Rasm3.1.3. O‘zbekistonda qulay investitsion muhitining omillari

Mamlakatni modernizatsiya qilish va iqtisodiyotni diversifikatsiya etish, iqtisodiyot tarmoqlarining raqobatdoshligini oshirish hamda mahalliy ishlab chiqarish korxonalarining eksportdagi hajmini kengaytirishga qaratilgan investitsiya faoliyatini tartibga soluvchi 50 dan ortiq huquqiy-hujjat qabul qilindi, jumladan, “Konsessiyalar to‘g‘risida”gi, “Erkin iqtisodiy zonalar to‘g‘risida”gi, “Chet el investitsiyalari to‘g‘risida”gi, “Chet ellik investorlar huquqlarining kafolatlari va ularni himoya qilish choralari to‘g‘risida”gi 30.04.1998 yildagi Qonuni; “Investitsiya faoliyati to‘g‘risida”gi, “Tashqi iqtisodiy faoliyat to‘g‘risida”gi Qonunlar ayni shu maqsadga xizmat qilmoqda.

2011 yilda moliyalashtirishning barcha manbalari hisobidan qiymati 10 milliard 800 million dollardan ortiq kapital qo‘yilmalar o‘zlashtirildi, bu 2010 yilga nisbatan 11,2 foiz ko‘p demakdir.

Respublikamiz iqtisodiyotida investitsiyalarning so‘nggi olti yildagi o‘sish so‘r‘atlari turlicha bo‘lib, bunda oldingi yillardagiga nisbatan o‘sish va pasayish tendensiyalari kuzatilmoqda.



Rasm3.1.4. 2005-2011 yillarda mamlakatimiz iqtisodiyotiga yo'naltirilgan investitsiyalarning o'sish sur'atlari, foizda.

2011 yilning yanvar-dekabr oylarida 18291,3 milliard so'mlik kapital qo'yilmalar o'zlashtirilgan. Investitsiyalarning umumiy hajmida markazlashgan investitsiyalar 17,5 foizni (3198, 7 milliard so'm), investitsiyalarning yalpi ichki mahsulotdagi ulushi esa 23,9 foizni tashkil etgani ham mamlakatimizda investitsiya jarayonlarining jadal faollashib borayotganini ko'rsatadi.

Mamlakatimiz iqtisodiyotiga jalb etilayotgan investitsiyalar manbalari va ulardan foydalanish borasida ijobiy sifat o'zgarishlari ro'y bermoqda. Moliyalashtirish manbalari tarkibiga to'xtaladigan bo'lsak 2011 yilda umumiy investitsiyalar hajmida davlat byudjeti mablag'lari 5,1 foiz; chet el investitsiyalari 25,3 foiz; korxonalar va aholi mablag'lari 49 foizni tashkil etgan.

Moliyalashtirish manbalari	2005 y.	2006 y.	2007 y.	2008 y.	2009y.	2010 y.	2011 y.
Davlat byudjeti	12,7	10,7	9,0	9,0	8,1	7,4	5,1
Chet el investitsiyalari	19,2	19,0	22,8	25,8	32,4	28,8	25,3
Korxonalar va aholi mablag'lari	60,3	60,0	59,0	53,9	46,9	47,3	49,0
Boshqa manbalar	7,8	10,3	9,2	11,3	12,6	16,5	20,6

Rasm 3.1.5. 2005-2011 yillarda investitsiyalar tarkibining o'zgarishi, foizda⁶

Iqtisodiyotdagi tarkibiy islohotlarni yanada chuqurlashtirish, korxonalarning investitsion faoliyatini yanada jonlantirish, xorijiy investitsiyalarni, avvalo to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarni keng jalb etish va ulardan samarali foydalanish, ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish, texnik va texnologik qayta qurollantirish, yangi ish o'rinlarini shakllantirish va shu asosda milliy iqtisodiyotimizni barqaror va jadal rivojlantirishni ta'minlash maqsadida respublika byudjetidan katta miqdorda mablag'lar ajratilmoqda.

Investitsiya bozori infratuzilmasini shakllantirishda iqtisodiy subektlarning investitsiya va moliyaviy ehtiyojlariga xizmat ko'rsatish bo'yicha keng imkoniyatlarga ega bo'lgan tijorat banklari, bankdan tashqari moliyaviy tashkilotlar, investitsiya fondlari va boshqa moliyaviy vositachilar muhim rol o'ynaydi. Shularni e'tiborga olib, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2010 yil 29 dekabrda "O'zbekiston Respublikasining 2011 yilga mo'ljallangan investitsion dasturi to'g'risida"gi 1455-sonli qarori qabul qilindi.

	Moliyalashtirish manbalarining nomlanishi	Ajratiladigan mablag'lar, million so'm
	Jami kapital qo'yilmalar, <i>shundan:</i>	20 721 845
1.	Markazlashgan investitsiyalar:	4 969 491
1.1.	Byudjet mablag'lari	950 000
1.2.	Sug'oriladigan yerlarning meliorativ holatini yaxshilash jamg'armasi	105 000
1.3.	Byudjetdan tashqari fonlardan, <i>jumladan,</i> - Respublika yo'l jamg'armasi - Bolalar sportini rivojlantirish jamg'armasi - Ta'lim muassasalarini rekonstruksiya qilish, kapital ta'mirlash va jihozlash jamg'armasi	911 834 609800 139930 162104
1.4.	Tiklanish va taraqqiyot jamg'armasi (so'm ekvivalentida)	1 353 527

⁶ Islom Karimov. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralari. – T.: O'zbekiston, 2009.

1.5.	Davlat kafolati ostidagi xorijiy investitsiyalar va kreditlar (so‘m ekvivalentida), <i>shundan:</i> <i>qishloq joylarda uy-joylar qurish (so‘m ekvivalentida)</i>	1 376 130 171 750
2.	Markazlashmagan investitsiyalar:	16 025 354
2.1.	Korxona mablag‘lari	7 536 261
2.2.	Tijorat banklari kreditlari va boshqa qarz mablag‘lari, shu jumladan: <i>ATB “Qishloq qurilish banki”ning qishloq joylarda uy-joylar qurish uchun imtiyozli kreditlari</i>	2 069 185 196 289
2.3.	To‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar va kreditlar (so‘m ekvivalentida)	3 835 109
2.4.	Aholi mablag‘lari	2 584 800

Rasm 3.1.6. O‘zbekiston Respublikasining 2011 yildagi Investitsiya dasturida ko‘zda tutilgan kapital qo‘yimalarning asosiy parametrlari⁷

Jami investitsiyalarning 73 foizdan ortig‘i mamlakatimizning ichki manbalari hisobidan – korxonalar va aholi mablag‘lari, investitsiya jarayonlarida tobora faol ishtirok etayotgan tijorat banklari kreditlari, shuningdek, davlat byudjeti va byudjetdan tashqari jamg‘armalar mablag‘lari hisobidan shakllantirilgan.

Olib borilgan tizimli ishlar va oqilona investitsiya siyosati tufayli o‘tgan 2011 yilda o‘nlab zamonaviy korxonalar ishga tushirildi. Xususan, “Jeneral Motors Pavertreyn O‘zbekiston” qo‘shma korxonasida yuqori texnologiyalar asosida avtomobil generatori va kopressorlari ishlab chiqarish bo‘yicha quvvatlar barpo etildi, energiyani tejaydigan lampalar ishlab chiqarish bo‘yicha uchta loyiha amalga oshirildi.

Shular qatorida “Zenit elektroniks” qo‘shma korxonasida “Samsung” kir yuvish mashinalari ishlab chiqarish o‘zlashtirildi. Ayni paytda maishiy gaz plitalari, konditsionerlar, elektr pilesoslar va bir qancha boshqa mahsulotlar ishlab chiqarish yo‘lga qo‘yildi.

“Muborak gazni qayta ishlash zavodi” unitar sho‘ba korxonasida suyultirilgan gaz ishlab chiqarish hajmini ko‘paytirish maqsadida propan-butan aralashmasi qurilmasining birinchi navbatini, Samarqand viloyatida “MAN” yuk tashish mashinalari ishlab chiqarish bo‘yicha yangi majmuaning dilerlik markazini bunyod etish ishlari yakuniga yetkazildi.

Navoiy shahridagi erkin industrial-iqtisodiy zona muvaffaqiyatli faoliyat yurita boshladi, uning hududida yangi tashkil etilgan korxonalarda spidometrlar, avtomobillar uchun o‘tgazgichlar, kompressorlar, raqamli televizion tyunerlar, energiyani tejaydigan lampalar, yoritish uskunolari, diodli lampalar, modemlar, polietilen va propilen quvurlar, kosmetika vositalari hamda tibbiyot mahsulotlari ishlab chiqarish yo‘lga qo‘yildi.

Amalga oshirilgan keng qamrovli ishlar natijasi o‘laroq, 2011 yilda va undan keyingi yillarda oziq-ovqat sanoatini rivojlantirish va qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini saqlash, qayta ishlash, ularning iste‘molchilarga talofatlarsiz yetib borishini ta‘minlash borasida xo‘jalik yurituvchi subektlarga tashkiliy-huquqiy, ijtimoiy-iqtisodiy tadbirlar, turli xildagi imtiyoz va preferensiyalar taqdim etildi. Xususan,

1. Navoiy viloyati «Navoiy» erkin industrial-iqtisodiy zonasida 3 ming tonna sig‘imga ega bo‘lgan, zamonaviy usulda gaz muhitini boshqarib boradigan (RGS) sovutish kameralari tashkil etildi va buning uchun loyiha qiymati 8,3 milliard so‘mga teng bo‘lgan mablag‘ o‘zlashtirildi;

2. Toshkent viloyati Parkent tumanidagi «Parkent-Greyp» MCHJ negizida loyiha qiymati 377,5 million so‘m bo‘lgan, 500 tonna sig‘imga ega sovutish kamerasi barpo etildi.;

⁷O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2010 yil 29 dekabrda “O‘zbekiston Respublikasining 2011 yilga mo‘ljallangan investitsion dasturi to‘g‘risida”gi 1455-sonli qarori. 1-ilova.

3. Qashqadaryo viloyati Kitob tumanida «Sevaz-Androniks» MCHJ qoshida 1000 tonna sig‘imga ega bo‘lgan sovutish kamerasi barpo etildi. *Loyiha qiymati*: 500 million so‘m, *loyiha ishtirokchilari*: «O‘zmarkazimpeks» DATSK, «Sevaz-Androniks» MCHJ.


Qishloq xo‘jaligi sohasida erishilgan yutuq va natijalar sarhisobini davom ettiradigan bo‘lsak, 2011 yilda parrandachilik tarmog‘ini rivojlantirish va aholini tuxum va paranda go‘shtiga bo‘lgan ehtiyojini qondirish maqsadida mamlakatimizning 8 ta hududida (Qoraqalpog‘iston Respublikasi, Andijon, Qashqadaryo, Namangan, Sirdaryo, Farg‘ona, Xorazm, Surxondaryo viloyatlari) Tashqi iqtisodiy aloqalar, investitsiya va savdo vazirligi va tashqi savdo kompaniyalari tomonidan jami qiymati 3 milliard so‘mga teng bo‘lgan 54,3 mingta paranda boqish mumkin bo‘lgan 10 ta investitsiya loyihasi amalga oshirildi.

O‘zbekiston iqtisodiyotini modernizasiya qilishning hozirgi bosqichida investitsion faoliyatini amalga oshirish mexanizmlarini yanada takomillashtirish talab etilmoqda. Investitsiya bozorini shakllantirish investitsiya resurslarini to‘plash, jamg‘armalarni investitsiyalarga aylantirish, ulardan foydalanish samaradorligini oshirish muammolarini hal etishning zaruriy sharti hisoblanadi.

3.2. Investitsion faoliyatini amalga oshirish mexanizmlarini takomillashtirish yo‘llari.

Hukumatimiz tomonidan qulay investitsiya siyosatini olib borish maqsadida quyidagi tamoyillarga ustuvor ahamiyat qaratilmoqda: tashqi iqtisodiy faoliyatni yanada erkinlashtirish; respublika iqtisodiyotiga to‘g‘ridan-to‘g‘ri kapital qo‘yilmalarning keng jalb qilinishini ta‘minlovchi huquqiy, ijtimoiy-iqtisodiy va boshqa sharoitlarni yanada takomillashtirish; yurtimizga jahon darajasidagi texnologiyalarni olib kiruvchi, milliy xo‘jalikning zamonaviy tuzilmasini tashkil etishga ko‘maklashuvchi chet el investorlariga nisbatan qulay sharoitlar yaratish siyosatini izchil olib borish; eng muhim ustuvor yo‘nalishlarga mablag‘larni yo‘naltirish. Bundan ko‘rinadiki, korxonalarni texnik va texnologik jihatdan qayta jihozlash, zamon talablariga mos bo‘lgan tovar va xizmatlarni ishlab chiqarish va ayniqsa, jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozining keyingi to‘lqinlari zarbasiga ijtimoiy-iqtisodiy talofatlarsiz bardosh berish, ularning salbiy oqibatlarini bartaraf etish bilan bog‘liq masalalarni hal etishda kompleks yondashuvlarga urg‘u berilmoqda.

Yurtboshimiz ta‘kidlaganidek, "... jahon zaxira valyutalarining beqarorligi, moliya-bank tizimi kredit qobiliyatining keskin pasayishi va investitsiyaviy faollikning susayishi bilan bog‘liq murakkab muammolar ko‘plab davlatlar iqtisodiyotning tiklanish va o‘sish sur‘atlariga ta‘sir ko‘rsatmoqda”⁸.



⁸ Islom Karimov. 2012 yil Vatanimiz taraqqiyotini yangi bosqichga ko‘taradigan yil bo‘ladi. T.: O‘zbekiston, 2012 yil.

Rasm 3.2.1. .2011 yil Davlat investitsiya dasturi doirasida jalb qilingan xorijiy investitsiyalarning tarmoqlar bo'yicha ulushi.

2011 yilda hududiy investitsiya dasturi doirasida to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarning mutloq qiymati 402 million dollarni tashkil etgan

2011 yilning 1 oktabr holatiga ko'ra, xorijiy sarmoyalar ishtirokidagi korxonalar soni jami 4575 tani, shundan faoliyat olib borayotgan korxonalar soni 4203 tani tashkil etgan. Faoliyat olib borayotgan qo'shma korxonalarning 1600 tasi tashqi iqtisodiy faoliyat bilan shug'ullanayotgan korxonalar hisoblanadi.

Yurtimizda o'tkazilayotgan iqtisodiy siyosat jahon iqtisodiy hamjamiyatiga integrasiya jarayonining faqat davlatning tarkibiy tuzilishi bo'yicha emas, balki xususiy sektor darajasida ham jadallashuvini nazarda tutadi. Erkin bozorning faoliyat ko'rsatishi uchun yaratilayotgan sharoit G'arb va Sharq ishbilarmonlarining mamlakatimizga barqaror qiziqishini uyg'otmoqda. Bugungi kunda bizning tadbirkorlarimiz ham xorijiy investorlarni hamkorlikka jadal jalb etmoqda.

Ayni vaqtda xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar barpo etish quyidagi bosqichlarni o'z ichiga olmoqda: korxonani tashkil etish sabablarini inobatga olish; ishonchli sherik tanlash; xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxona barpo etish haqida qaror qabul qilish.

Xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonani tashkil etish sabablarining asosan uch turkumini ajratib ko'rsatish mumkin. Bular ichki, tashqi va strategik sabablardir.

Ichki sabablar tarkibi quyidagilardan iborat: yaratilgan investitsiya muhitidan foydalanish; boshqaruvning yangi usullarini o'zlashtirish; zamonaviy va eng qulay tartibga erishish; mahalliy ishchi kuchi resurslaridan samarali foydalanishni kengaytirish; xorij bozoriga kirib borishni tezlashtirish; ijtimoiy, madaniy va siyosiy bilimlarni kengaytirish; xodimlar malakasini oshirish.

Tashqi sabablar tarkibi quyidagicha: jahon bozoriga chiqish; sog'lom va samarali raqobat muhiti; xorijiy iqtisodiy aloqalarning yaxshiligi; mahalliy xokimiyatning talablari.

Strategik sabablar tarkibi quyidagilardan iborat: mamlakatda zamonaviy ish yuritish usullaridan foydalanish imkoniyati; mustahkam xomashyo bazasiga ega bo'lish; texnologiyalar transferti; ishlab chiqarishni kengaytirish.

Investitsion faollik barcha soha va tarmoqlarda jadal sur'atlarda amalga oshirib kelinmoqda. Birgina Davlat mulki qo'mitasi tomonidan 2011 yilda 135 ta oldi-sotdi shartnomasi bo'yicha investitsiya majburiyatlarining bajarilishi nazoratga olingan. 2011 yilda 88,1 million dollar va 22,5 milliard so'mlik investitsiya majburiyatlari bajarilgan. Shundan 1 million dollar va 18,5 milliard so'mlik qismi "nol" qiymatda sotilgan obektlar bo'yicha bajarilgan investitsiya majburiyatlari hisoblanadi.

Bunda ilg'or texnologiyalarni tatbiq etish, yangi ish o'rinlari yaratish va shu asosda mamlakat iqtisodiyotining barqaror va bir maromda rivojlanishini ta'minlash imkoniyati yaratiladi. Rivojlangan davlatlar tajribasi shuni ko'rsatadiki, chet el investitsiyasi jalb qilinishi yuksak darajada taraqqiy etishning hal qiluvchi omillaridan biri bo'lgan. Ammo yana bir haqiqat mavjudki, chet el investitsiyalarini keragidan ortiq jalb etish ham mamlakatni iqtisodiy va siyosiy qaramlikka olib kelishi mumkin.

Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarni jadal modernizasiya qilish va texnik qayta jihozlashni ta'minlash, yuksak texnologiyalar asosida ishlaydigan avtomobilsozlik va gaz-kimyo, elektr texnikasi va to'qimachilik, oziq-ovqat va farmasevtika, axborot va telekommunikasiyalar tarmog'i hamda boshqa yo'nalishlardagi yangi va zamonaviy ishlab chiqarish quvvatlarini tashkil etishga qaratilgan faol investitsiya siyosatini yuritishga ustuvor ahamiyat berilmoqda. Jahon xo'jaligini rivojlantirishda xalqaro kapital migrasiyasi muhim ahamiyatga ega, chunki u mamlakatning tashqi iqtisodiy va siyosiy aloqalari mustahkamlanishiga olib keladi, ularning tashqi savdo aylanmalarini, ishlab chiqarish hajmini ko'paytiradi, iqtisodiy rivojlanishni jadallashtiradi, ishlab chiqarilayotgan tovarlarning jahon bozoridagi raqobatdoshligini, importchi mamlakatlar texnik salohiyatini o'stiradi va mamlakatdagi bandlikni oshiradi.

Xorijiy investitsiyalar va jalb qilinadigan kreditlar hajmi 16 foizga ko'payib, 3 milliard 300 million dollardan oshadi. Mazkur mablag'ning 2 milliard 300 million dollardan ortig'i yoki qariyb 70 foizini to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar tashkil etishi, ayniqsa, e'tiborlidir. Bu

xorijiy investorlarning iqtisodiyotimizning mustahkamligi va barqarorligiga, eng muhimi, O'zbekiston taraqqiyotining istiqboliga bo'lgan qiziqishi va ishonchi tobora ortib borayotganidan yaqqol dalolat beradi".

Investitsiya siyosati nafaqat kapital mablag'lar miqyosini oshirishni, balki ularning takror ishlab chiqarish tarkibiy tuzilmasini takomillashtirishni, investitsiyalarni ko'proq samarali va raqobatdosh ishlab chiqarishlarga yo'naltirishni ko'zda tutadi.

Korxona va aholi mablag'larining ulushi boshqa manbalarga nisbatan yuqori bo'lib, markazlashmagan investitsiyalarning 56,1 foizini tashkil etmoqda. Ma'lumki, investitsiyalarni moliyalashtirish manbalari bo'yicha tarkibining shakllanishi iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish jarayonlari bilan bog'liq. Ishlab chiqaruvchilarga soliq yukini pasaytirishga qaratilgan soliq-byudjet siyosatini takomillashtirish, to'lov intizomini mustahkamlash, xususiylashtirish jarayonlarini jadallashtirishga qaratilgan chora-tadbirlar korxonalarining o'z mablag'lari ko'payishiga imkoniyat yaratdi.

Iqtisodiyotning yetakchi, avvalambor bazaviy tarmoqlarini modernizasiya qilish va texnik qayta jihozlash bo'yicha loyihalarni va shuningdek, samarali tarkibiy o'zgarishlar va investitsiya siyosatini amalga oshirishda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tashabbusi bilan 2006 yilda tashkil etilgan, nizom fondi bugungi kunda qariyb 7 milliard dollardan iborat bo'lgan O'zbekiston Respublikasi Tiklanish va taraqqiyot jamg'armasining roli tobora ortib bormoqda.

Jamg'armaning eng asosiy vazifalaridan biri – iqtisodiyotning yetakchi tarmoqlari rivoji, birinchi navbatda, ishlab chiqarish infratuzilmasining shakllanishi bilan bog'liq ustuvor vazifalarni amalga oshirishda hal qiluvchi ahamiyat kasb etadigan strategik investitsiya loyihalarini moliyalashtirishdan iborat.

Hozirgi paytda jamg'armaning investitsiya portfelida umumiy qiymati 18,5 milliard dollardan ortiq 55 investitsiya loyihasi mavjud. Shuning 4,3 milliard dollari jamg'arma mablag'lari hisobidan birgalikda moliyalashtiriladi.

Jamg'arma faoliyat yuritayotgan davr mobaynida umumiy qiymati 1,7 milliard dollarni tashkil etadigan 16 ta investitsiya loyihasi amalga oshirildi. Tiklanish va taraqqiyot jamg'armasi hal etadigan yana bir muhim vazifa xorijiy investorlar, moliya institutlari va sheriklarni investitsiya loyihalarini birgalikda moliyalashtirish va amalga oshirish maqsadida mamlakatimizga keng jalb etish hisoblanadi. Jamg'armaning qo'shma loyihalarda ishtirok etishi Osiy taraqqiyot banki, Yaponiya xalqaro hamkorlik agentligi, Islom taraqqiyot banki, Xitoy eksport-import banki, Xitoy davlat taraqqiyot banki, Koreya taraqqiyot banki va boshqa xorijiy moliya institutlari, bank va kompaniyalarning mablag'lari hisobidan 3,2 milliard dollardan ziyod chet el investitsiyasi va kreditlarini jalb etish imkonini berdi.

2011-2015 yillarda tarkibiy o'zgarishlarni, iqtisodiyotning soha va tarmoqlarini diversifikasiya va modernizasiya qilishni izchil davom ettirish, ishlab chiqarishni texnik va texnologik yangilash, shuningdek, transport, muhandislik, kommunikasiya va ijtimoiy infratuzilmalarni rivojlantirish jarayonlarini yanada chuqurlashtirishga qaratilgan faol investitsiya siyosati olib boriladi.

Ushbu maqsadlar uchun 2011-2015 yillar davomida oxirgi besh yil mobaynida o'zlashtirilgan investitsiyalarga qaraganda 2 barobar ko'p, jami 77,4 milliard dollar miqdoridagi investitsiyalarni yo'naltirish mo'ljallanmoqda. Asosiy kapitalga kiritilayotgan investitsiyalarning yalpi ichki mahsulotga nisbatan ulushi 24 foizdan kam bo'lmasligi tarkibiy o'zgartirishlarni jadal amalga oshirish va iqtisodiyotni modernizasiya qilishni ta'minlaydi.

Investitsiya loyihalarini moliyalashtirishning asosiy hajmi ichki resurslarni safarbar qilish hisobidan amalga oshiriladi. Kelgusi yillarda bu ko'rsatkich yalpi kapital qo'yilmalar hajmining 76 foizini tashkil etadi.

Bu mablag'lar, avvalo, ishlab chiqarishni modernizasiya qilish, texnik va texnologik yangilashni amalga oshirayotgan korxonalarining o'z mablag'larini ko'paytirishi, soliq yukini yanada kamaytirish, tijorat banklarining resurs bazasini mustahkamlash va aholining tadbirkorlik faoliyatidan oladigan daromadlarini oshirish hisobidan hosil bo'ladi.

Strategik muhim, birinchi navbatda, infratuzilmani shakllantirish, ishlab chiqarishni rekonstruksiya qilish va modernizasiya etishga qaratilgan loyihalarni amalga oshirishga ichki resurslarni jalb etishda O'zbekiston Respublikasi Tiklanish va taraqqiyot jamg'armasi alohida

o‘rin egallaydi. Mazkur jamg‘armaning tarkibiy o‘zgarishlardagi tobora ortib borayotgan rolini inobatga olgan holda, yaqin yillarda uning hisobida 10 milliard dollardan ziyod mablag‘ jamlanadi.

2011-2015 yillarda yoqilg‘i-energetika tarmog‘ini, mashinasozlik va avtomobilsozlikni rivojlantirish, elektr energetika sohasida energiya ishlab chiqarish quvvatlarining samaradorligini oshirish va diversifikasiya qilish, metallurgiya sanoatini kompleks modernizasiya etish, transport va ishlab chiqarish infratuzilmasini rivojlantirishga qaratilgan loyihalarni moliyalashtirish uchun Tiklanish va taraqqiyot jamg‘armasi tomonidan 4,7 milliard dollardan ziyod mablag‘ yo‘naltiriladi.

Mazkur jamg‘armaning eng muhim vazifalaridan biri strategik investitsiya loyihalarini birgalikda moliyalashtirish maqsadida yirik xorijiy investor va sheriklarni jalb etishdir. Masalan, Yaponiya xalqaro hamkorlik agentligi va Osiyo taraqqiyot banki ishtirokida amalga oshirilayotgan, umumiy qiymati 1,28 milliard dollarga teng bo‘lgan Tolimarjon issiqlik elektr stansiyasida ikkita bug‘-gaz moslamasini qurish loyihasi shular jumlasidandir.

Kelgusi yillardagi ustuvor yo‘nilishlardan biri mamlakatimizda, eng avvalo, jalb qilinayotgan to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar hajmini oshirish, chet el investorlari uchun kafolatlar yaratish hamda ularning ishonchini mustahkamlash maqsadida yanada qulay investitsiya muhitini shakllantirishdan iborat.

Bu vazifalarni amalga oshirish 2011-2015 yillar davomida 13 milliard dollardan ziyod yoki o‘tgan besh yildagiga nisbatan 1,7 barobar ko‘p to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar jalb etilishini ta‘minlaydi. Ushbu mablag‘lar eng ilg‘or texnologiyalar bilan jihozlangan va xomashyo resurslarini chuqur qayta ishlash hamda raqobatdosh tayyor mahsulotlar ishlab chiqarishni ta‘minlaydigan, mamlakatimiz eksport salohiyatini oshirish hamda yangi ish o‘rinlarini yaratishga xizmat qiladigan yangi sanoat korxonalarini tashkil etish bo‘yicha chet el investorlari ishtirokidagi 320 tadan ortiq yirik investitsiya loyihasini amalga oshirishga yo‘naltiriladi.

Ishlab chiqarishni rivojlanishi tovarlar talabiga nisbatan taklifni o‘sib ketishi yoki kamayib ketishi investitsiyalarni yo‘nalishini, ya‘ni u yoki bu soxalar va tarmoqlarda unumli sarflanishini, natijada yuqori darajada foyda keltirishini aniqlab beruvchi omil sifatida xizmat qiladi. Ayrim mamlakatlarda investitsiyalar yalpi ijtimoiy maxsulotning yoki jamg‘arma fondidagi ulushi 80 va undan ortiq foizga yetadi.

Aynan investitsiyalarni o‘zlashtirish va investitsiyalashda xatoliklarga yo‘l qo‘ymaslik, ularni bexuda sariflamaslikka, samaradorligini oshirishga, mamlakatga yangi texnika va texnologiyani kirib kelishiga olib keladi.

Xulosa va takliflar

Raqobat muhiti sharoitida sanoat ishlab chiqarishida investitsiyalarni boshqarish samaradorligi ("Sho'rtanneftgaz" unitar shu'ba korxonasi misolida) bitiruv malakaviy ishi bo'yicha xulosalarimizni keltiramiz:

1. Investitsiya - ishlab chiqarishni rivojlantirish maqsadida mamlakat yoki chet ellarda iqtisodiyotning turli tarmoqlariga uzoq muddatli kapital qo'yish bo'lib, u asosan bevosita (real) investitsiya yoki moliyaviy (portfel) investitsiya ko'rinishida amalga oshiriladi. Investitsiya jarayonlarini tashkil etish, ularda katnashish investitsiya faoliyatini bildirib, mazkur faoliyatni shakllantirish, amalga oshirish va tartibga solish bo'yicha davlatlar o'rtasidagi va davlat ichidagi, firma va kompaniyalar, xususiy shaxslar orasidagi o'zaro munosabatlar investitsiya siyosatini tashkil etadi.

2. Sho'rtanneftgaz USHKda investitsiyalarni samarali boshqarish borasida qo'shimcha resurslarga bo'lgan ehtiyojning kuchliligi va quyidagi jarayonlarni ta'minlovchi muhim omil hisoblanishi orqali belgilanadi: iqtisodiy va texnik jarayonni jadallashtirish; ishlab chiqarish apparatini yangilash va modernizatsiyalash; ishlab chiqarishni tashkil qilishning ilg'or usullariga erishish; bozor iqtisodiyoti talablariga javob beruvchi kadrlar tayyorlash.

3. Sho'rtanneftgaz USHKda investitsiyalarni samarali boshqarishning asosiy omillari bo'lib quyidagilar hisoblanadi: qonunchilik asoslari; bozorlarning tavsifi; bozorga kirish erkinligi; ishchi kuchi; valyuta bozori; kapitalning qaytarilishi; soliq stavkalari; chegara nazorati; sertifikatlash va standartlashtirish; atrof-muhitni muhofaza qilish.

4. Korxonaning o'zaro qarzdorliklarini mavjudligi, oborot mablag'larining yetishmasligi yetarli darajada investitsiya jalb qilishiga salbiy ta'sir etib moliyaviy-iqtisodiy rivojlanish ko'rsatkichlari o'rtacha darajada ekanligidan dalolat beradi.

Bu kabi muammolarni bartaraf qilish uchun quyidagi takliflarni amalga oshirish maqsadga muvofikdir:

- 2011-2015 yillarga muljallangan respublika investitsiya Dasturiga mos ravishda korxonaning shu yillarga investitsiyalarni jalb etish dasturini ishlab chiqish va tadbiq etish;

- Jahon darajasidagi texnologiyalarni olib keluvchi investorlarga nisbatan ochiq eshiklar siyosatini izchillik bilan olib borish;

- O'zini o'zi valyuta bilan qoplashni ta'minlovchi ishlab chiqarish loyihalariga yo'naltirilgan investitsiyalarga ko'maklashish;

- Ijtimoiy va ekologik dasturlarni hal etishga yo'naltirilgan investitsiyalarga ko'maklashish;

- Korxona tomonidan investitsiya iqlimi to'g'risidagi ma'lumotlarning e'lon qilinishi, tahlil qilinishi, baholanishi va tasdiqlanishi kabi masalalarni to'g'ri yo'lga qo'yish;

- Korxonada qat'iy moliyaviy menejment asoslarida xisob yuritish;

- Infratuzilma sohasidagi (yo'llar, transport, aloqa) qo'shma investitsiyalarni amalga oshirishni faollashtirish va boshqalar.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

I. O'zbekiston Respublikasi Qonunlari, huquqiy va siyosiy hujjatlar.

1. O'zbekiston Respublikasining «Qimmatli qog'ozlar bozori to'g'risida»gi Qonuni, 2008 yil.
2. O'zbekiston Respublikasining «Qimmatli qog'ozlar bozori to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi qonuniga o'zgartishlar va qo'shimchalar kiritish haqidagi» Qonuni, 2009 yil.
3. O'zbekiston Respublikasining «O'zbekiston Respublikasi soliq kodeksining 256-moddasiga o'zgartish va qo'shimcha kiritish to'g'risidagi» Qonuni, 2009 yil.
4. O'zbekiston Respublikasining «Erkin iqtisodiy zonalar to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi qonuniga o'zgartish va Qo'shimchalar kiritish haqida»gi Qonuni, 2009 yil.
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Xorijiy investitsiyalarni axborot bilan ta'minlash va ko'maklashish agentligi — «O'zinfoinvest»ni tashkil etish to'g'risida»gi PQ-578-sonli Qarori.
6. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «2007 — 2010 yillarda xususiylashtirish jarayonlarini yanada chuqurlashtirish va xorijiy investitsiyalarni faol jalb qilish chora-tadbirlari to'g'risida»gi 20.07.2007 y. PQ-672-sonli Qarori.
7. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Xorijiy investitsiyalar va kreditlarni jalb etish hamda o'zlashtirish jarayonini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi 24.07.2008 y. PQ-927-sonli Qarori.
8. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Iqtisodiyotning real sektori korxonalari moliyaviy barqarorligini oshirish bo'yicha chora-tadbirlari to'g'risida»gi 18.11.2008 y. PF-4053-sonli Farmoni.
9. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi majlisining Qarori. 2008 yilda Respublikani ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2009 yilda iqtisodiyotni barqaror rivojlantirishning eng muhim ustuvor vazifalari to'g'risida. 2009 yil 13 fevral.
10. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2009 yil 23 apreldagi 120-son Qaroriga 2-ilova «Navoiy» erkin industrial-iqtisodiy zonasi hududida alohida soliq rejimini ta'minlash tartibi to'g'risida Nizom».
11. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining «Navoiy» erkin industrial-iqtisodiy zonasi hududida alohida bojxona rejimi hamda alohida soliq rejimini ta'minlash tartibi to'g'risidagi nizomlarni tasdiqlash haqida»gi 23.04.2009 y. 120-sonli Qarori.
12. Vazirlar Mahkamasining 2009 yil 9 apreldagi 105-son qaroriga 2-ilova «Navoiy» erkin industrial-iqtisodiy zonasi-da joylashtirish uchun investorlarni tanlash tartibi to'g'risida Nizom».
13. Vazirlar Mahkamasining 2009 yil 10 martdagi 61-son Qaroriga ilova «O'zbekiston Respublikasining Tiklanish va taraqqiyot jamg'armasi tomonidan investitsiya loyihalarini birgalikda moliyalashtirish uchun tijorat banklariga kredit liniyalarini ochish tartibi to'g'risida Nizom».
14. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Iqtisodiyotning real sektori korxonalarini qo'llab-quvvatlash, ularning barqaror ishlashini ta'minlash va eksport salohiyatini oshirish chora-tadbirlari dasturi to'g'risida»gi 28.11.2008 y. PF-4058-sonli Farmoni.
15. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Tijorat banklarining investitsiya loyihalarini moliyalashtirishga yo'naltiriladigan uzoq muddatli kreditlari ulushini ko'paytirishni rag'batlantirish borasidagi qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi 28.07.2009 y. PQ-1166-sonli Qarori.
16. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «2010 yildagi asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlar va O'zbekiston Respublikasi Davlat byudjeti parametrlari prognozi to'g'risida»gi 12.12.2009 y. PQ-1245-sonli Qarori.
17. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «O'zbekiston Respublikasining 2010 yilgi Investitsiya dasturi to'g'risida»gi 28.10.2009 y. PQ-1213-sonli Qarori.
18. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining «Iqtisodiyotning real sektori aksiyadorlik jamiyatlarining moliyaviy barqarorligini yanada oshirishni ta'minlashga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi 17.12.2009 y. 316-sonli qarori.

19. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining «2010 yilda O‘zbekiston Respublikasiga xalqaro moliyaviy va iqtisodiy institutlar, donor mamlakatlarning beg‘araz texnik ko‘magini (grantlarini) jalb etish chora-tadbirlari to‘g‘risida» 2010 yil 9 martdagi 40-son qarori

II. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti asarlari

1. Karimov I.A. “Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O‘zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo‘llari va choralari” – T.: O‘zbekiston, 2009. – 56 b.
2. Karimov I.A. “Inson manfaatlarini ustuvorligini ta‘minlash - barcha islohot va o‘zgarishlarimizning bosh maqsadidir”-T.: «O‘zbekiston», 2008. -64 b.
3. Karimov I.A. “Yuksak ma‘naviyat — yengilmas kuch” - T.: «Ma‘naviyat», 2008. — 176 b.
4. Karimov I.A. “Asosiy vazifamiz - vatanimiz taraqqiyoti va xalqimiz farovonligini yanada yuksaltirishdir” — T.: «O‘zbekiston», 2010. -80 b

III. Kitoblar va risolalar.

1. Islom Karimov. “2012 yil Vatanimiz taraqqiyotini yangi bosqichga ko‘taradigan yil bo‘ladi”- T.: O‘zbekiston, 2012 y., 11-bet.
2. “O‘zbekiston Respublikasi iqtisodiy-ijtimoiy taraqqiyotining mustaqillik yillaridagi (1990-2010 yillar) asosiy tendensiya va ko‘rsatkichlari hamda 2011-2015 yillarga mo‘ljallangan prognozlari: statistik to‘plam”. – T.: “O‘zbekiston”, 2011. – 13-b.
3. Tashqi iqtisodiy faoliyat Milliy banki: Chet el investitsiyalari diqqat markazida. «Bank axborotnomasi» gazetasi, 2008 yil 28 aprel, 19-20-son, 15-bet.
4. Karimov I.A. “Inson manfaatlarini ustuvorligini ta‘minlash - barcha islohot va o‘zgarishlarimizning bosh maqsadidir” -T.: «O‘zbekiston», 2008. -64 b.
5. Karimov I.A. “Yuksak ma‘naviyat — yengilmas kuch” - T.: «Ma‘naviyat», 2008. — 176 b.
6. G‘ozibekov D.G‘. “Investitsiyalarni moliyalashtirish masalalari” – T.: “Moliya” nashriyoti, 2009 yil. 32-bet.

IV. Ro‘znoma va jurnallardagi maqolalar

1. Xusniddin Madumarov “Mikrokredit bank” “OATB, ”Bankning investitsiyaviy faoliyatini muvofiklashtirish va tashki iqtisodiy aloqalar” departamenti bo‘limi boshlig‘i. “Pul kredit” jur 05 2010 25-27bet.
2. Ergashev I. “Xizmat ko‘rsatish sohasida investitsion jozibadorlikni oshirishning iqtisodiy ahamiyati va omillari”. Iqtisodiyot va ta‘lim. 2011 yil, 2-son, 122 b.
3. Fattoxova J. “O‘zbekiston moliya bozorining hozirgi ahvoli”. «Bozor, pul va kredit» jurnali, 2008 1-son. 17-bet.
4. Prezident I.A.Karimovning 2010 yilda mamlakatimizni ijtimoiy – iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2011 yil iqtisodiy dasturining eng muhim ustivor vazifalariga bag‘ishlangan majlisidagi ma‘ruzasi. Xalq so‘zi 2011 yil 22 yanvar.
5. “Mamlakatimizni modernizatsiya qilish va yangilashni izchil davom ettirish – davr talabi”-Prezident Islom Karimovning 2008 yilda mamlakatimizni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2009 yilga mo‘ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustivor yo‘nalishlariga bag‘ishlangan Vazirlar Mahkamasi majlisidagi ma‘ruzasi. “Xalq so‘zi”, 2009 yil 14 fevral.
6. “Mamlakatimizni modernizatsiya qilish va kuchli fuqarolik jamiyati barpo etish – ustivor maqsadimizdir”. – Prezident Islom Karimovning O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va Senatining qo‘shma majlisidagi ma‘ruzasi. “Xalq so‘zi”, 2010 yil 28 yanvar.
7. “Asosiy vazifamiz – Vatanimiz taraqqiyoti va xalqimiz farovonligini yanada yuksaltirishdir”. – Prezident Islom Karimovning 2009 yilning asosiy yakunlari va 2010 yilda O‘zbekistonni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning eng muhim ustivor yo‘nalishlariga bag‘ishlangan Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma‘ruzasi. “Xalq so‘zi”, 2010 yil 30 yanvar.
8. Karimov I.A. “Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konseptsiyasi” (O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi qonunchilik palatasi va Senatining qo‘shma majlisidagi ma‘ruza), “Xalq so‘zi”, 2010 yil 13 noyabr (№ 220).

VI. Internet saytlari

1. www.google.ru.
2. www.review.uz
3. www.cer.uz
4. www.obo.ru.
5. www.ziyo.net
6. [www. management.ru](http://www.management.ru)
7. [www. MBA.ru](http://www.MBA.ru)
8. www.usue.ru.-Uralskiy gosudarstvenniy ekonomicheskiy universitet
9. www.ice.spb.ru.- Sankt-Peterburgskiy trgovno-ekonomicheskiy institut.